QALQON

7 (334) 2026
IYUL

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI JURNALI
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА ВНУТРЕННИХ ДЕЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
JOURNAL OF THE MINISTRY OF INTERNAL AFFAIRS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ЩИТ ✸ SHIELD





USHBU SONDA

1 YURT QALQONLARI OMON BO‘LSIN!

6 SOHADAGI DADIL QADAMLAR

8 YOSH XODIMLARNING USTOZI

9 EL DUOSI – OLIY MUKOFOT

10 OTASIGA MUNOSIB IZDOSH

12 SINCHKOVLIK – ENG MUHIM «QUROL»

14 ODATDAGI BIR KUN

16 SAYYOHLIK SALOHIYATI OSHMOQDA

17 OTAMEROS NURAFSHON YO‘L

20 «УЧ ЮЗ ЕТМИШ БИРИНЧИ» АЛОҚАДА!»

22 HASHAR

24 ФОРМУЛА ДОВЕРИЯ

26 МЫ ДОБИЛИСЬ ЭТОГО ВМЕСТЕ

27 BOLD STEPS IN THE FIELD

28 QONUN BERGAN IMKONIYAT

30 GULLAR BAYRAMINING TAMAL TOSHI



33 SADOQAT VA MEHR-MUHABBAT TUYG‘ULARI

34 LEYTENANTNING JASORATI

36 HAYOT VA IJOD CHORRAHALARIDA

40 HAQIQAT SUV TAGIDA YOTMAS...

42 ISSIQ URISHIDAN SAQLANING

43 XODIMNING O‘ZI OG‘UFURUSH BO‘LSA...

44 AQSH SHERIFLARI

46 QODIRIYNI KO‘RGANMAN-U...

48 STRESSNI QANDAY YENGISH MUMKIN?

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ijtimoiy-huquqiy jurnali

QALQON-ЩИТ-SHIELD

2026-yil 7 (334)-son
1998-yil sentabr oyidan chiqa boshlagan

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Bosh muharrir, podpolkovnik
Xurshidbek RO‘ZIYEV

Bosh muharrir o‘rinbosarlari
podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV,
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas’ul muharrir
Erkin SATTOROV

Nashr uchun mas’ul
Bobomurod TOSHEV

Sahifalovchi
Muhiddin SOLIYEV

Navbatchilar
Shuhrat RO‘ZIYEV,
Radik TUMPAROV

Tuzatuvchi
Muqaddas ARIPDJANOVA

Fotomuxbirlar
Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2018-yil 10-avgustda 0125-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko‘chirib bosilganda «Qalqon-Щит-Shield»dan olinganligi ko‘rsatilishi shart.

Jurnal IIV Birlashgan tahririyati kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

Bosishga ruxsat etildi
2026-yil -avgust
Formati 60x84 1/8. 6 bosma taboq. Ofset usulida bosildi.
Buyurtma № 66
Nashr adadi 14 432
ISSN 2010-5347

OLTIN-NASHR
bosmaxonasida chop etildi.
Mas’ul Jo‘raev Turdimurod
Toshkent sh. Bunyotkor ko‘chasi 42 uy
Indekslar: yakka tartibdagilar uchun – 970
tashkilotlar uchun – 1083.

Manzilimiz: 100070,
Toshkent shahri Shota Rustaveli 1-berk ko‘chasi 9-uy.

Telefonlar:
71-231-33-88,
71-231-41-66.

Baxtning omillari ko‘p. Kimdir uni mol-davlatda, kimdir sihat-salomatlikda, kimdir kasbiy, ilmiy-ijodiy muvaffaqiyatda ko‘radi. Aslida dunyoda ozod va obod Vatandan, tinch-osoyishta hayotdan ulug‘roq ne’mat yo‘q. Boz ustiga, bu ozodlik va obodlikni, tinch-osoyishta hayotni ta’minlashda sening ham hissang qo‘shilayotgan bo‘lsa.



YURT QALQONLARI OMON BO‘LSIN!

Shodmon SULAYMON,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo‘limi rahbari, shoir.

Haqiqat qiyoslarda yuz ochadi. Chinakam ozodlik haqidagi qarashlaring ham. Bolalik va o‘smirlik yillarimni og‘riq va armon bilan eslayman. Din-u diyonat, an’ana-yu qadriyat qatag‘on qilingan, masjid-u madrasalar toptalib, Navro‘z doshqozonlari ichidagi taomi bilan loyga qorilgan yillar. Bo‘ynimizda qizil galstuklarni hilpiratib, «zamon darg‘alari»ga taqlidan duch kelgan «eskilik sarqiti» yoqasiga chang solib yurgan kezlarimiz. Biz, «doim tayyor pionerlar»dan bir nechtasi sinf devoriy gazetasini chiqarishga mas’ul bo‘lganmiz. Nomini aytmaysizmi: «Ateizm burchagi». Go‘dak qalbimizga qanchalar shafqatsizlik bilan chang solinganini tasavvur qildingizmi?!

Shunday kunlarning birida maktabdan qaytib, oshxonaga kirsam, o‘choq boshida ovqatga unnayotgan onam suv ichgan piyolani bir chetga qo‘yayotib: «Xudoga shukur», – dedilar. Shunda bir tukim ham qilt etmay onamga shunday dedim: «Xudo yo‘q-ku, nega Xudoga shukur, deysiz?» Onaginam titrab ketdilar. Menga hayronlik bilan bir zum tikilgach, bag‘rilariga bosgancha shivirladilar: «Bolaginam, bunday dema, maktabingda aytgan bo‘lsang aytgandirsan, lekin uyda bunday dema...» Onamning so‘zlariga uncha tushunmaganman o‘shanda...

Joriy yil muborak Ramazon oyida Prezidentimiz tashabbusi bilan bunyod etilgan Islom sivilizatsiyasi markazining ochilishi hamda shu munosabat bilan tashkil etilgan iftorlik marosimlarida qatnashish sharafiga muyassar bo‘ldim. Tadbirlar davomida ulug‘ ajdodlarimizga, din-u diyonatga, an’ana-yu qadriyatga munosabat aslida qanday bo‘lishi kerakligini yana bir marotaba yurakdan his qildim. Ota-onamni, o‘quvchilik yillarimizda qattol siyosat bola qalbimizga solgan g‘uborlarni esladim.

Bosh-adog‘i ikki chaqirim kelmaydigan qishlog‘imizda to‘rtta masjid bor. Bola paytimizda bu masjidlar kolxozning omboriga aylantirilgan edi. Ombor bo‘lgandayam, toza-ozoda narsalar emas, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda ishlatiladigan mineral o‘g‘itlar, mashina-traktorlarning eski-tuski ehtiyot qismlari saqlanadigan ombor edi.

O‘yinqaroq bolalar emasmizmi, masjidlar biz o‘ynaydigan eng gavjum joy edi. Eshiklari doim ochiq, mabodo, qulflangan taqdirda, ko‘chgan-nuragan tirqishlaridan kirib-chiqish cho‘t emasdi bizga. Bola yuragimiz katta-ku, bu yerni

makon qilgan turli hasharotlarning hammasini tirqiratib quvib, egallab olar edik. Xullas, ibodat-u qalbni poklashga xizmat qilishi lozim bo‘lgan maskanlar bizning o‘yin maydonchamiz edi. Kunni shu yerda kech qilardik...



Qishlog‘imiz masjidlari hozir ham bor. Shukurki, endi ombor emas ular. Bolalarning o‘yin maydonchasi ham emas. Barchasi ta’mirlangan, toza-ozoda, mahalla keksalarining tabarruk oshyoni. Ibodat-u qalb pokligi manzili. Qishlog‘imizning qadimiyligini elga ovoza qilgandek qo‘r to‘kib turishibdi.

Birinchi sinfga qabul qilingan yilimni yaxshi eslayman. Sentabr oyi emasmi, dalada paxta yig‘im-terimi qizg‘in. Boshlang‘ich sinflardan boshqa barcha – o‘quvchilar ham, o‘qituvchilar ham dalada. Shunday kunlarning birida, yo kimdir tashabbus qildi, yo «yuqoridan» buyruq keldi, o‘qituvchimiz tabiat qo‘ynida sayr qilamiz, deb, bizni maktabga tutash paxta dalasiga boshladi. Bo‘ynida fartuk. Paxta terishni boshladi, bizni ham da’vat qildi. 28 nafar jujuq pildiragancha paxta terib, o‘qituvchimizga keltirib beraverdik. Bir zumda kichkina xirmon uydik. Chakki emas, ota-onamiz, aka-opalarimiz erta tongdan qosh qoraygunicha tinim bilmay uyayotgan katta xirmonga ulush-da. «Go‘dak narsa dalada nima qiladi? Biror hasharot chaqib olsa, nima qilamiz? Tergan paxtasi tog‘ bo‘larmidi, shularning?» – deydigan mard yo‘q edi. Bu aslida ko‘pga kelgan to‘y edi.

Bizni qo‘yaturing. Avgust adog‘ida dalaga haydalgan opa-akalarimiz – yuqori sinf o‘quvchilari, talabalar-chi? «Ularga balo ham urmaydi»-da. Dekabr adog‘icha chidab berardi ular. Qish ertaroq kelsa, akalarim daladan yig‘ib kelgan xom ko‘saklarni opalarim chuvib, kechga dovur ertasi kuni maktabga olib boradigan «norma»sini bajarardi. Hatto, terim uchun boshqa viloyatga ham olib ketaverishar edi ularni. Ota-onamizni xavotirga qo‘ygan, o‘g‘il-qizini o‘ylab yurak hovuchlashga majbur qilgan o‘sha kunlarni eslasam, titrab ketaman...

> *Bugun-chi? Paxta dalasida biror o‘quvchi yoki talabani oxirgi marta qachon ko‘rganimizni eslay olmaymiz. Ota-onalarning ham xavotiri aridi. Qilsa bo‘lar ekan-ku! Mehnat aql bilan uyg‘unlashtirilsa, o‘quvchi yoki talabaning ko‘magisiz ham «plan»ni bajarsa bo‘lar ekan-ku.*

Talabalikning og‘riqlari hech ko‘ngildan ketmaydi. Aslida oltin davr bo‘lishi kerak bo‘lgan bu yillar bizning xotiramizga og‘riqlari bilan muhrlangan. Paxta dalasida, ovloq manzillardagi shiyponlarda o‘tgan kunlarimizni eslamay qo‘ya qolay. Qishloqdan shaharga qatnab o‘qiganimiz, ijarama-ijara sarson bo‘lganimizning o‘zi – butun boshli asarga manba bo‘ladigan og‘ir dard. To‘g‘ri, yosh davlat edik, muammolarimiz ham shunga yarasha bisyor edi.

Qishlog‘imizdan tuman markazigacha besh chaqirimlar keladi. Yo‘lovchi transporti xizmati izdan chiqqan, qishloqlararo qatnaydigan avtobuslar anqoga shafe’. Bir qishloqda bir-ikki yengil mashina bor yoki yo‘q. Uyam egasidan ortmaydi. Nachora, shaharga jo‘nashda ham, shahardan qaytishda ham sadoqatli ulovimiz – oyog‘imizga suyanamiz. Tuman markazigacha bo‘lgan besh chaqirimlik masofani yayov bosib o‘tamiz.

Bosh bekatga yetib kelganimizdan so‘ng,



ikkinchi tomosha boshlanadi. Buxoro shahriga qatnaydigan uch-to‘rt avtobus bor, xolos. Sharti ketib, parti qolgan bu ulovlar tez-tez buzilib qolardi. Xullas, ulov talosh. O‘tirib ketish u yoqda tursin, avtobus eshigidan kirib olishning o‘zi – ming mashaqqat. Shaharga yetib kelgach, keyingi avtobusga osilar edik. Nima qilib bo‘lmasin, yotoqxonaga yetib olishimiz, ertangi mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rishimiz kerak edi.

Bugun-chi? Biror joyga otlanmoqchi bo‘lsak, uydan turib mashina buyurtma qilamiz. Kutubxonaga borib, navbat talashishga hojat yo‘q. Aksariyat kitoblar o‘zimizda bor, qolaversa, internet beminnat yordamchimiz. Bularning ham ilojini qilolmasak, buyurtma asosida hatto kitobni ham uyga keltirib berishlari mumkin. Farzandlarimizga talabalikda o‘zboshimcha to‘dalar qo‘liga tushib, pulimizdan ajraganimiz yetmaganday, kaltak bilan ham «siylanganimizni» aytsak, hayron bo‘lishadi. Chunki ular bunday tashvishlardan yiroq. Chunki bugun huquq-tartibot organlari xodimlarining fidoyilarcha xizmati tufayli ularning osoyishtaligini buzadigan to‘dalar yo‘q. Bo‘lmasin ham! Tinch-osuda hayotga nima yetsin!

Darvoqe, kasbiy faoliyatim haqida ikki og‘iz gapirmasam ko‘nglim joyiga tushmaydi. Zotan, birgina shu jabhada islohotlarning ulkan natijalari bor. 2015-yilda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo‘limi rahbarligiga tayinlanganman. Mendan oldingi rahbarga – ustozim, taniqli shoir, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Toshpo‘lat Ahmedovga qanchalar qiyin bo‘lganini juda yaxshi tasavvur qilaman. Orzulari ko‘p edi ustozning. Viloyat qalamkashlari boshini qovushtirish, mushoira kechalarini bardavom qilish, iste’dodli ijodkorlar, ayniqsa, yoshlarning kitoblarini nashr ettirish orzusi tinchlik bermas edi u kishiga. Ammo sharoit bo‘lmasa, nima qilasan? Orzu – orzuligicha, reja – rejaligicha qoladi-da. Aslida, «Buxoro mavjlari» jurnalini ta’sis etishiga, jurnal sahifalarini muntazam ravishda voha ijodkorlari asarlari bilan ziynatlashiga sabab shu edi.

> *Nihoyat, ustozning orzusi ushaldi. Prezidentimizning hamda Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlariga ko‘ra, Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo‘limiga «Do‘stlar klubi» tamoyili asosida «Buxoro neftni qayta ishlash zavodi» mas’uliyati cheklangan jamiyati homiy sifatida biriktirildi.*

Shundan so‘ng vaziyat tamomila o‘zgardi. Bo‘limning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Ijodiy uchrashuvlar, mushoira davralari,

yubiley kechalarini o‘tkazish yana an’ana sifatida yo‘lga qo‘yildi. Voha yosh ijodkorlari asarlaridan iborat ikki jildli «Obod yurtning umid daraxti» jamoa to‘plami, ustoz ijodkorlar asarlaridan tarkib topgan ikki jildli «Buxoro adiblari bo‘stoni» kitobi nashr etildi. Bugina emas, o‘tgan o‘n yilga yaqin vaqt mobaynida bo‘lim tashabbusi bilan buxorolik 50 nafardan ziyod turli yoshga mansub qalamkashlarning kitoblari ko‘p ming nusxada chop etilib, viloyat ta’lim muassasalariga bepul yetkazib berildi. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi bilan hamkorlikda Shofirkon va Qorovulbozor tumanlaridagi mahallalarda namunaviy mahalla kutubxonalari tashkil etilgani tufayli bu kitoblar ushbu hududlardagi muxlislarimiz qo‘liga yetib bordi.



Bo‘lim huzuridagi «Nilufar» adabiy to‘garagi faoliyati yana jonlandi.

Joriy yilda quvonchimiz yana qanot yozdi: ijodkor qizimiz Mehriniso Ergasheva Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga munosib ko‘rilgan bo‘lsa, Farzona Nosirova «Yosh kitobxon» tanlovining respublika bosqichida g‘olib deb topilib, Prezident sovrinini qo‘lga kiritdi. Yana bir ijodkorimiz Mohinur Hoshimova esa mazkur tanlovda 3-o‘rinni egallab, 50 million so‘m pul mukofoti bilan taqdirlandi. Bu ezgu sa’y-harakatlar mohiyatida cheksiz shukrona bor, yurtga daxldorlik, uning kelajagi yo‘lida qat’iy safarbarlik hissi mujassam.

Ha, biz bolaligimizdagi chang ko‘chalardan, aftoda qishlog‘-u shaharlardan, toptalgan nom-u shonlardan bugungi obod va ko‘rkam mahallalarga, inson qadri ulug‘lanadigan kunlarga yetib keldik. Qadamda yurak hovuchlaydigan, to‘s-to‘polon davralardan emin-erkin ilm-u ijod bilan shug‘ullanadigan, halol rizq topiladigan, dunyoga o‘z so‘zini aytish imkonini beradigan saflarga yetib keldik. Ulkan imperiyaning bir bo‘lagi o‘laroq zarurat tug‘ilgandagina eslanadigan ittifoqdosh respublikadan bayrog‘i cho‘ng davralarda hilpiraydigan, madhiyasi barchani oyoqqa qalqitadigan muazzam davlatga yetib keldik.

Bularning barchasi tinimsiz mehnat, iroda, sabot va matonat tufayli qo‘lga kiritildi. Yana uyg‘oqlik va ogohlik tufayli ham! Ha, uyg‘oqlikda gap ko‘p. Ayniqsa, qalb uyg‘oqligida. Xalqimizning baxti – qalbi uyg‘oq rahnamosi borligida! Mamlakatimizning baxti – qalbi uyg‘oq farzandlari borligida! Endi, o‘zingiz ayting, yurt rahnamosi barchani uyg‘oqlikka chorlab, o‘zi yo‘lboshchi bo‘lib turganida, g‘aflatda qolish mumkinmi?! Yosh avlod parvozga shaylanganida, unga qo‘l-qanot bo‘lmaslik, fursat kutib yotaverish mumkinmi?! Aslo yo‘q!

Ijozat bersangiz, so‘zlarimni ichki ishlar organlari xodimlarining o‘ziga xos madhiyasiga aylanib ketgan «Yurtga qasamyod» manzumasidagi satrlar bilan yakunlasam. Zero, yurt qalqonlari xizmatga kamarbasta ekan, jonajon Vatanimiz hech qachon zavol ko‘rmaydi. Uning osoyishtaligiga hech qanday kuch raxna sololmaydi:

Men Vatan deb yo‘lga tushdim, men Vatan
deb yo‘lga tushdim,
Yurtim, seni jondan ortiq ko‘raman,
deb yo‘lga tushdim.
Sen otamsan, sen volidam, o‘g‘lim yayrab
o‘sgan dalam.
Sen qay tomon yo‘llar bo‘lsang, boraman,
deb yo‘lga tushdim.
Men Vatan deb yo‘lga tushdim, shul chaman
deb yo‘lga tushdim,
Yo‘lim to‘ssa qay bir nokas – yanchaman,
deb yo‘lga tushdim.
Ona bo‘lib ko‘z yoshimni artgan jondan
aziz yurtim,
Tikaningni yuragimga sanchaman,
deb yo‘lga tushdim!

SOHADAGI DADIL QADAMLAR

Mamlakatimizda inson qadrini ulug‘lash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, hududlarda jinoyatchilikni barvaqt jilovlash va xavfsiz muhitni yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.



Farhod USMONOV, *Navoiy viloyati IIB JXX HPB boshlig‘i, podpolkovnik.*

Navoiy viloyatida ham huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha dadil qadamlar qo‘yilmoqda. Jumladan, profilaktika inspektorlari faoliyatini raqamlashtirish, aholi bilan ishlashning zamonaviy usullarini joriy etish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. So‘nggi yillarda profilaktika xizmatida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi ijobiy samarasini bermoqda.

Ilgari qog‘oz shaklida yuritilgan ko‘plab ma’lumotlar bugun elektron tizimlarga o‘tkazildi. Bu esa profilaktika inspektorlariga vaqtni tejash, har bir shaxs bo‘yicha ma’lumotlarni tezkor olish va tahlil qilish, huquqbuzarlikka moyil fuqarolar bilan manzilli ishlash imkonini bermoqda. Shuningdek, ma’lumotlar bazasining yagona tizimga integratsiya qilinishi nafaqat xizmatlar o‘rtasida, balki idoralararo hamkorlikni ham mustahkamlab, qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirmoqda.

QULAY, ANIQ VA SAMARALI

Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida joriy etilgan «E-Inspektor» ilovasi soha xodimlari, ayniqsa profilaktika inspektorlari faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Mazkur dastur orqali inspektorlar xizmat hududidagi aholi, profilaktik hisobda turuvchi shaxslar, himoya orderi berilgan xotin-qizlar, ijtimoiy ko‘makka muhtoj oilalar hamda boshqa muhim toifalar haqidagi ma’lumotlarni tezkor ravishda qabul qiladilar.

Shuningdek, mamlakatimizda ishga tushirilgan «Mening inspektorim» mobil ilovasi esa aholiga bir qator qulayliklar yaratdi. Ushbu ilova orqali fuqarolar mahalla profilaktika inspektori bilan onlayn muloqot qilishi, foto, video va xabar yuborishi hamda o‘z inspektorining faoliyatini baholashi mumkin.

Eng muhimi, mazkur yangiliklar tufayli xizmat jarayonida bajarilgan ishlar onlayn tarzda qayd etilib, nazorat qilinadi. Bu esa har bir vazifaning aniq va sifatli bajarilishini ta’minlash bilan birga, inson omili ta’sirini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Natijada profilaktika inspektorlarining hududlardagi ishtiroki kuchayib, aholi murojaatlariga tezkorlik bilan munosabat bildirish imkoniyati kengaydi.

«E-IJTIMOIY PROFILAKTIKA» PLATFORMASI – AMALDA



Jinoyat va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda nafaqat huquqiy choralar, balki ijtimoiy yondashuv ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu maqsadda joriy etilgan «E-ijtimoiy profilaktika» platformasi orqali turli muammolarga duch kelgan oilalar va fuqarolar aniqlanib, ular bilan manzilli ishlar tashkil etilmoqda. Shuningdek, ishsizlik, oilaviy nizolar, ijtimoiy qiyinchiliklar yoki huquqbuzarlikka moyillik kabi omillar erta bosqichda aniqlanib, tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amaliy choralar ko‘rilmoqda. Bu esa huquqbuzarlikning oqibatiga qarshi kurashish emas, balki uni keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etish imkonini yaratayotgani bilan ahamiyatlidir.

ZAMON TALABLARI ASOSIDA



Zamonaviy profilaktika inspektori nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi xodim, balki psixolog, maslahatchi va aholi bilan samarali muloqot qila oladigan mutaxassis ham bo‘lishi lozim.

Shu bois Navoiy viloyatida hududiy profilaktika inspektorlarining huquqiy bilimi va kasbiy mahoratini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda ular bilan doimiy ravishda o‘quv mashg‘ulotlari, seminarlar va amaliy darslar tashkil qilinyapti. Bu esa har bir inspektorning xizmat faoliyatini zamon talablari asosida tashkil etishida, fuqarolarning huquq va manfaatlarini yanada samarali himoya qilishda qo‘l kelmoqda.

XAVFSIZ MAHALLA – UMUMIY MAQSAD

Navoiy viloyatida huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi ishlar mahallalardagi kriminogen vaziyatni chuqur tahlil qilish va mavjud muammolarni manzilli hal etish tamoyili asosida tashkil etilmoqda.

Bundan ko‘zlangan maqsad mahallalarda kriminogen vaziyatni yaxshilash, xavfsiz muhit yaratishdan iborat.



Xususan, jinoyat va huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablarini bartaraf etish maqsadida olti ustuvor yo‘nalish bo‘yicha «Dolzarb 10 kunlik» profilaktik tadbirlari yo‘lga qo‘yildi. Mazkur jarayonda ijtimoiy himoya, yoshlar va voyaga yetmaganlar, ayollar va turmushdagi munosabatlar, migratsion profilaktika, profilaktik hisobda turuvchi shaxslar hamda giyohvandlikka qarshi kurashish yo‘nalishlari doirasida aholi o‘rtasida keng targ‘ibot ishlari amalga oshirilmoqda.

NATIJA

Bunday yondashuv har bir mahalladagi mavjud muammolarni alohida o‘rganish va ularga ta’sirchan choralar ko‘rish imkonini berib, kriminogen vaziyatni barqarorlashtirishga xizmat qilmoqda. Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida viloyat hududidagi 310 ta mahalladan 219 tasi «yashil» toifaga kiritilishiga erishildi. Alohida ta’kidlash lozimki, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilgidan 30 taga oshgan. Joriy yilning 5 oyi davomida 29298 ta huquqbuzarlik aniqlangan. Xususan, yoshlar va xotin-qizlar ishtirokidagi jinoyat va huquqbuzarliklar sezilarli darajada kamayishiga muvaffaq bo‘lindi.

Ertalabdan Dehqonobod tumani IIB JXX HPB profilaktika katta inspektori, podpolkovnik Akmal Po‘latov «Duob» mahallasi hududidagi kriminogen vaziyatni tahlil qildi. So‘ng fuqarolarning yozma murojaatlari bilan tanishdi. Aksar jinoyatlar bekorchilikdan, dangasalikdan kelib chiqadi. Inson biror foydali ish bilan mashg‘ul bo‘lmasa, albatta, moddiy yetishmovchiliklarga duch keladi. Oqibatda bilib-bilmay dastlab ma’muriy huquqbuzarlikka, keyin esa jinoyatga qo‘l uradi.



YOSH XODIMLARNING USTOZI

Bu jihatlarni inobatga olgan lavhamiz qahramoni avval muqaddam sudlanganlar bilan profilaktik suhbat o‘tkazdi. So‘ngra mahallani aylanib, aholi bilan muloqotga kirishdi. Murojaatchilar, nizoli oilalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar, tarbiyasi og‘ir yoshlar bilan uchrashib, ularning muammolarini o‘rgandi, hal etish choralarini ko‘rdi.

Ma’lumki, ayni kezlarda o‘quvchi yoshlar yozgi ta’tilga chiqqan. Inspektor ular o‘rtasida sport musobaqalari tashkil etishni rejalashtirgan. Hozir esa profilaktik suhbat o‘tkazib, qonunlarga rioya qilish, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, internet, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanganda xavfsizlik qoidalariga rioya etish, yot g‘oyalardan ehtiyot bo‘lish lozimligini tushuntirdi.

Kunning ikkinchi yarmida fuqarolarni qabul qildi. Mahalladagi ijtimoiy muhitni yaxshilash maqsadida hamkor tashkilotlar vakillari bilan uchrashdi. Ushbu tadbirda mahalla raisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, hokim yordamchisi, ijtimoiy xodim ham ishtirok etdi. Muloqot chog‘ida yechimini kutayotgan muammolarni hal etish chora-tadbirlarini belgilab olishdi. Kechki payt esa odatga ko‘ra mahallada jamoat tartibini saqlash maqsadida tungi navbatchilikni tashkil qildi.

«Duob» mahallasida 1145 ta oila mavjud bo‘lib, 5400 nafardan ziyod aholi istiqomat qilmoqda. Hududda o‘rmon xo‘jaligi, oshxonalar, oilaviy poliklinika, savdo majmualari joylashgan. Jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha manzilli choralar belgilanib, mahalla yettiligi va biriktirilgan mas’ullar tomonidan «fuqarobay» va «xonadonbay» tamoyillari asosida o‘rganishlar olib boriladi. Bunda asosan aholini ish, doimiy daromad manbayi bilan ta’minlash choralari ko‘riladi. Ushbu sa’y-harakatlarning natijasi o‘laroq hozirda hudud «yashil» toifada.

Raqamlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, profilaktik tadbirlar davomida 86 ta ma’muriy huquqbuzarlik aniqlanib, aybdor shaxslarga nisbatan tegishli choralar ko‘rildi. Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan 10 nafar xotin-qizga himoya orderi rasmiylashtirilib, oilaviy nizolarga barham berildi. Fuqarolarning 96 ta murojaati o‘rganilib, har biri yuzasidan qonuniy qaror qabul qilindi.

– Joriy yilning o‘tgan davri ichida profilaktik hisobdagi shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘yilmadi, muqaddam sudlanganlarning bandligi ta’minlandi, – deydi biz bilan suhbatda podpolkovnik Akmal Po‘latov. – Mahalla yarashtiruv komissiyasi bilan hamkorlikda 5 ta xonadonda oila-turmush doirasidagi muammolarni ijobiy hal etdik, 3 ta oilani yarashtirdik.

– Mahallani osoyishta, tinch va obod hududga aylantirish borasida podpolkovnik Akmal Po‘latovning tinim bilmay xizmat qilayotgani e’tirofga loyiq, – deydi Dehqonobod tumani IIB JXX HPB boshlig‘i, kapitan Orol Qo‘ldoshev. – U tajribali, malakali, ilg‘or fikrli bo‘lgani bois targ‘ibot tadbirlarida faol, ko‘pchilikka gapi o‘tadi. Qisqa qilib aytganda, o‘z sohasining bilimdoni, yosh xodimlarning esa talabchan va g‘amxo‘r ustozi.

Sodiq RAHIMOV,
o‘z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

Katta yo‘l chetida, qo‘lida jezl bilan harakat xavfsizligini ta’minlab turgan YPX xodimini ko‘rganimizda, xayolimizdan har xil fikrlar o‘tadi. Uni kimdir qoidabuzarlarni jazolaydigan nazoratchi deb bilsa, boshqa birov yo‘ldagi tartib-intizomning yagona kafolati deb hisoblaydi. Biroq inspektorning xizmati mashaqqatli, zimmasidagi mas’uliyat, zalvorli ekanini hamma ham chuqur anglayvermaydi.

EL DUOSI – OLIY MUKOFOT



Toshkent viloyatining Toshkent tumani – poytaxtga tutash, kun-u tun transport oqimi tinmaydigan, harakat intensivligi yuqori bo‘lgan hududda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash vazifasi Toshkent tumani IIB YHXX YPX inspektori, kichik serjant Akmal Shuhratov zimmasiga yuklatilgan.

Inson taqdirini ko‘p jihatdan o‘zi o‘sib-ulg‘aygan muhit belgilaydi. Akmal Shuhratov bolaligidan ichki ishlar xodimlariga xos bo‘lgan qat’iy tartib-intizom, qonunga hurmat va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalandi. Boisi – uning bobosi ham, otasi ham umrini el-yurt osoyishtaligini ta’minlashga bag‘ishlagan. Akmal uchinchi avlod vakili sifatida ushbu sharafli an’anani davom ettirishni o‘zining muqaddas burchi deb bildi.

Lavhamiz qahramoni 2017-yildan buyon ichki ishlar organlari safida sidqidildan xizmat qilib kelmoqda. O‘tgan yillar davomida u nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko‘nikmalarini ham mustahkamladi. Otasi va bobosining o‘gitlari unga yo‘llarda uchraydigan har qanday murakkab vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilishda ma’naviy ko‘makchi bo‘ldi.

Kichik serjant Akmal Shuhratovning ish kuni tong otmasdan boshlanadi. Uning «kabineti» – ochiq osmon ostidagi ko‘cha. Yozning jaziramasida ham soatlab yo‘l harakatini tartibga soladi. Peshonasidan oqqan tomchi-tomchi ter yo‘l harakati ishtirokchilarining xavfsizligi evaziga to‘lanadigan badaldir. Izg‘irinda, qor yoki yomg‘ir yog‘ib, yo‘llar muzlama bo‘ladigan qishning qahratonida esa uning mas’uliyati ikki karra ortadi.

Xizmat chog‘ida turfa fe’l-atvorli insonlar uchraydi. Kimdir shoshilayotganini vaj qilib qoida buzadi, boshqasi esa asabiy holatda bo‘ladi. Akmal Shuhratov nafaqat qonun himoyachisi, balki kuchli psixolog hamdir. U har qanday vaziyatda ham muomala madaniyatini saqlagan holda, haydovchilarga tushuntirish ishlarini olib boradi. Maqsadi faqat jazolash emas, balki avvalambor qoidabuzarlikning og‘ir oqibatlaridan ogohlantirishdir.

Yo‘llarda sodir bo‘ladigan kichik bir e’tiborsizlik ham inson umriga nuqta qo‘yishi mumkin. Akmal har gal smenaga chiqqanida bunga yo‘l qo‘ymaslikdek ulkan mas’uliyatni yurakdan his qiladi. Mast haydovchini o‘z vaqtida to‘xtatish – ehtimoliy mudhish avtohalokatning oldini olish va kimningdir aziz farzandini, ota-onasini qutqarib qolish demakdir. «Bizning xatoga yo‘l qo‘yishga haqqimiz yo‘q, chunki ortimizda insonlar taqdiri turibdi», – deydi lavhamiz qahramoni.

Yo‘l chetidagi hayot murakkab, ammo kichik serjant Akmal Shuhratov o‘zining mas’uliyatli burchini sharaf bilan bajarishda davom etmoqda. Zero, elning duosi, haydovchi, yo‘lovchi va piyodalarning omonligi uning uchun eng oliy mukofotdir.

Abror POYONOV,
katta mutaxassis-muxbir,
katta serjant.

Toshkent viloyati.

2022-yilning jazirama yoz kunlari. IIV Akademiyasiga kirish imtihonlari yaqinlashgani sayin Skarlet Ishniyazovaning qalbidagi hayajon ortib borardi. U tunlarni tonglarga ulab kitob varaqlar, test savollariga javob qaytarardi. Ba’zan xayolidan: «Agar kira olmasam-chi?» degan savol o‘tardi. O‘sha qiz bugun Xorazm viloyati IIB Terrorizmga qarshi kurashish boshqarmasi mafkuraviy targ‘ibot bo‘limi katta mutaxassisi, leytenant, «Scientific publication» ilmiy matbuot markazi tomonidan o‘tkazilgan «Ilm-fan fidoyisi» ko‘rik-tanlov g‘olibi.



OTASIGA MUNOSIB IZDOSH


Lavhamiz qahramonining otasi Ruslan Ishniyazov Xorazm viloyati IIB Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasi boshlig‘i, polkovnik. Onasi Barno Abdullaeva esa shifokor. Insonlar salomatligini asrashni umrining mazmuniga aylantirgan onaning va maqsadi el-yurt osoyishtaligini ta’minlash bo‘lgan otaning tarbiyasini olgan Skarlett mas’uliyat, intizom va fidoyilik nima ekanini anglab ulg‘aydi.

– Men bolaligimdanoq otamning kasbiga qiziqib qolganman. Shu sababli ichki ishlar organlarida xizmat qilishni o‘zim uchun maqsad qilib qo‘yganman, – deydi Skarlett.

U orzusiga yetish uchun IIV Xorazm akademik litseyiga o‘qishga kirdi. Litseyda tahsil olayotgan davridayoq bilimga chanqoqligi, intizomi va tirishqoqligini namoyon etdi. O‘qish bilan bir qatorda sport, musiqa va tasviriy san’at yo‘nalishlarida ham faol bo‘ldi. Erishgan yutuqlari e’tibordan chetda qolmadi. 2021-yilda IIVning «O‘qishdagi muvaffaqiyatlari uchun» ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi. Bu esa yosh qiz uchun katta rag‘bat bo‘ldi. Tinimsiz mehnat va izlanishlar natijasida akademik litseyni imtiyozli diplom bilan tamomladi.

Endi uning oldida IIV Akademiyasiga kirishdek yanada murakkab sinov turardi. Kuchli hayajon bilan o‘tgan imtihon kunlari ham nihoyat ortda qoldi. Tanlov natijalariga ko‘ra Skarlett Ishniyazova ushbu nufuzli oliy ta’lim dargohi kursantlari safiga qabul qilindi. Bu nafaqat uning, balki ota-onasining ham yutug‘i edi. Akademiyada jinoyat qidiruv yo‘nalishida puxta bilim oldi, dastlabki amaliy ko‘nikmalarni egalladi, xizmat faoliyatining murakkab va mas’uliyatli jihatlarini nazariy jihatdan o‘rgandi.

Ilmiy izlanishlarga bo‘lgan qiziqish uni



tadqiqotlar olib borishga undadi. 2024-yilda «Yoshlar orasida ekstremizmga qarshi immunitetni shakllantirish» mavzusidagi maqolasi xalqaro ilmiy jurnalda chop etildi. Mazkur maqolada bugungi yoshlarni turli yot g‘oyalardan himoya qilish, ularda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish hamda ekstremizmning salbiy oqibatlari haqida muhim xulosalar ilgari surildi. Maqola mutaxassislar tomonidan yuqori baholanib, diplom bilan taqdirlandi.

Bu esa yosh tadqiqotchining ilmiy faoliyatiga yangi turtki berdi. Bugungi kunda u ilmiy izlanishlarini davom ettirib kelmoqda. Aynan ana shu intilishlar samarasi o‘laroq xalqaro «Ilm-fan fidoyisi» ko‘rik-tanlovida muvaffaqiyatli ishtirok etdi va ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

Skarlett Ishniyazovaning yutuqlari faqat akademik ta’lim va ilmiy maqolalar bilan cheklanib qolmayapti. U xizmat faoliyati davomida kasbiy bilim va ko‘nikmalarini muntazam ravishda oshirib bormoqda. Xususan, Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligining Krasnodar universitetida MDH davlatlari ichki ishlar organlari xodimlari uchun tashkil etilgan malaka oshirish kursini muvaffaqiyatli tamomlab, sertifikatga ega bo‘lgan. Shuningdek, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita huzuridagi Diniy-ma’rifiy sohada malaka oshirish va qayta tayyorlash institutida «Xotin-qizlar o‘rtasida radikallashuv xavfining oldini olish yo‘llari» bo‘yicha bilimlarini mustahkamladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan tashkil etilgan maxsus o‘quv kursini a’lo natijalar bilan tamomladi. Bu esa uning xizmatga mas’uliyat bilan yondashishidan va zamonaviy bilimlarni muntazam egallab borayotganidan dalolat beradi.

Bugun leytenant Skarlett Ishniyazova xizmat faoliyati bilan bir qatorda ilm-fan, ma’naviyat yo‘nalishlarida va jamoat ishlarida ham faol ishtirok etib kelmoqda. U Yangi O‘zbekiston yoshlarining yorqin vakillaridan biridir. Ishonamizki, ilm-fan va xizmatni birdek qadrlaydigan lavhamiz qahramoni hali yurtimiz ravnaqi, xalqimiz osoyishtaligini ta’minlash yo‘lida ko‘plab yutuqlarga erishadi.

Nilufar JABBOROVA,
o‘z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.



Jinoyatni ochish uchun ba’zan bir iz, bir qarash yoki oddiy savolning o‘zi kifoya qiladi. Tergovchi uchun qonunni bilish qanchalik muhim bo‘lsa, voqealar zanjiri ortida yashiringan haqiqatni ko‘ra olish ham shunchalik ahamiyatlidir. Farg‘ona shahar IIB huzuridagi Tergov bo‘limi bo‘linma boshlig‘i, podpolkovnik Otabek Mavlonovning ko‘p yillik faoliyati buni tasdiqlaydi.

SINCHKOVLIK – ENG MUHIM «QUROL»

Otabek Mavlonov qariyb o‘n olti yildan buyon tergov sohasida samarali xizmat qilib kelmoqda. Bu davr mobaynida yuzlab jinoyat ishlarini tergov qildi, ko‘plab murakkab holatlarda haqiqatni aniqlashga, adolatni qaror toptirishga hissa qo‘shdi. Shu bois hamkasblari uni puxta bilimli, o‘ziga talabchan va sinchkov tergovchi sifatida qadrlashadi.

Lavhamiz qahramoni tergovchilik faoliyatida har bir holatga shubha bilan qarashga, uni tahlil qilishga odatlangan. Uning fikricha, jinoyatni fosh etishda dalillarni yig‘ishning o‘zi yetarli emas. Tergovchi har bir mayda jihatni o‘rganib, voqealar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni topa bilishi lozim. Buning yorqin misoli sifatida bir necha yil avval tergov qilingan jinoyat ishini keltirish mumkin.

Giyohvandlik vositasini sotayotgan vaqtda qo‘lga olingan shaxsning yashash manzili tergov-tezkor guruhi tomonidan tekshiriladi. Xolislar ishtirokida uy to‘liq ko‘zdan kechiriladi. Biroq jinoyatga aloqador hech qanday ashyoviy dalil yoki giyohvandlik vositasi topilmaydi. Ko‘pchilikka bu holat tekshiruvni yakunlash uchun asos bo‘lishi mumkin edi. Ammo Otabek Mavlonovni bir narsa o‘ylantirayotgandi. Unga gumon qilinuvchining xatti-harakatlari va o‘zini tutishida qandaydir sir bordek tuyulardi. Tergovchi uchun esa ichki sezgi ham muhim ahamiyatga ega.

Lavhamiz qahramoni aynan shu nuqtada kasbiy tajribasiga tayandi. U mahalla ahli bilan suhbatlashishga qaror qildi. Oddiy bir savolga olingan javob esa butun jinoyat zanjirini ochib berdi. Otabek Mavlonov:

– Falonchi akaning yana boshqa uyi ham bormi? – deb so‘raganida, qo‘shnilardan biri u yaqinda boshqa mahalladan ham hovli sotib olganini aytib qoladi. Shundan so‘ng yangi ma’lumotlar tekshiriladi va haqiqatan ham gumon qilinuvchiga tegishli yana bir hovli borligi



aniqlanadi. Tergovchi tergov-tezkor guruhining boshqa a’zolari bilan o‘sha manzilga yo‘l oladi.

Tashqaridan qaraganda oddiy molxona bo‘lib ko‘ringan bu joyda ham dastlab hech qanday shubhali holat aniqlanmaydi. Ammo Otabek Mavlonovning diqqatini molxona devoridagi daricha tortadi. Aynan shu kichik eshik orqali qo‘shni hovliga o‘tish mumkinligi ma’lum bo‘ladi. Tekshiruv davom ettirilganda esa haqiqat yuzaga chiqadi. Qo‘shni hovlida yashirin ombor tashkil etilgan bo‘lib, undan katta miqdorda taqiqlangan vositalar topiladi.

Keyinchalik ma’lum bo‘lishicha, gumon qilinuvchi ikki hovlini ham o‘z nomiga sotib olgan. Birini molxona sifatida, ikkinchisini odam yashamaydigan uy sifatida ko‘rsatgan. Omborga yashirin eshik orqali kirib-chiqib, jinoiy faoliyatini uzoq vaqt sir saqlab kelgan. Mazkur jinoyatning fosh etilishida tergovchining aynan sinchkovligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etganini alohida e’tirof etish zurur. Agar u birinchi tekshiruv natijalari bilan cheklanganida, jinoyatning asosiy izlari ochilmay qolishi mumkin edi.

– Tergovchi uchun eng muhim xislatlardan biri sinchkovlikdir, – deydi Otabek Mavlonov. – Sohada yangi ish boshlagan paytlarimda ustozlarim mayor Dilmurod Salohiddinov hamda podpolkovnik Sherzod Xo‘jaev hamisha «Mayda detallarga e’tibor ber, sinchkov bo‘l», – deb uqtirishardi. Ularning maslahatlariga, mana 16 yildirki, doim amal qilib kelaman. Chunki ko‘p holatlarda «kalavaning uchi» aynan ko‘zga tashlanmaydigan jihatlarda yashiringan bo‘ladi.

Darhaqiqat, zamonaviy tergovchi nafaqat huquqiy bilimlarga, balki tahlil qilish, mantiqiy fikrlash va odamlar ruhiyatini anglash qobiliyatlariga ham ega bo‘lishi kerak. Otabek Mavlonovning faoliyati shu jihatlari bilan yosh tergovchilar uchun o‘ziga xos mahorat maktabi vazifasini o‘tamoqda.

Kezi kelganda, uning namunali oila bunyod etib, farzandlarini ilm-u ma’rifatga muhabbat ruhida tarbiyalayotganini ham e’tirof etish joiz. O‘g‘illari Humoyunbek va Javohirbek kelajakda dadasi kabi tergovchi bo‘lishni orzu qilib, tinimsiz o‘qib izlanishmoqda. Mavlonovlar xonadonida kichik kutubxona tashkil etilgan bo‘lib, bir necha yuzlab nodir adabiyotlar, huquqiy mavzudagi kitoblar jamlangan.

Abduvosit SIDIQOV,
o‘z muxbirimiz.

Farg‘ona viloyati.



Uning har bir kuni yangi sinovlar, turli qismatlar va kutilmagan uchrashuvlardan iborat. Mahallalardagi oilaviy muammolar, xotin-qizlar taqdiri bilan bog‘liq masalalar uning diqqat markazida. Samarqand shahar IIOFMB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo‘yicha katta inspektori, katta leytenant Nargiza Burxanovaning odatdagi bir ish kunini kuzatib, o‘zimiz buning shohidi bo‘ldik.

ODATDAGI BIR KUN

Erta tongdan lavhamiz qahramonini ish ustida uchratdik. Xizmat xonasida hujjatlarni, hisobotlarni ko‘zdan kechirib, galdagi bajaradigan vazifalarini rejalashtirib turgan ekan. Nargiza Burxanovaning xotin-qizlar murojaatlarini hal etish, oilaviy ajrimlarning oldini olish borasida joni halak. Turli masalalarda telefon qo‘ng‘iroqlari, kutilmagan vaziyatlar uning kundalik faoliyatining ajralmas qismi.

Mana, 23 yildirki, shu jarayonlar ichida. Mavjud masalalarga mushohada bilan yondashadi, muammoning yechimini topib, vaziyatni ijobiy hal etish choralarini izlaydi. Chunki bu ayolning eng kuchli quroli mehr va ishonchdir. Uning chehrasida charchoq bo‘lishi mumkin, ammo ko‘zlarida har doim jur’at aks etadi. Chunki biladiki, har bir ayol baxtli bo‘lsa, jamiyat gullab-yashnaydi.

– Ba’zan ishim cho‘zilib, uyimga kechasi allamahal kirib boraman. Sababi, mushkul vaziyatlar, muammolar, nizoli holatlar. Bular menga tinchlik bermaydi. Hamkor tashkilotlar bilan masalani hal etsakkina ko‘nglim ravshan tortadi. Ana shunda o‘zimda qoniqish his qilaman. Men kimningdir quvonchiga sababchi bo‘ldim, deb faxr tuyaman. «Haqiqiy baxt boshqalarning baxti uchun yashashdir», degan shiorga amal qilaman, – deydi qahramonimiz.

Shu payt katta leytenant Nargiza Burxanovaga yoshlar bilan profilaktik targ‘ibot tadbirida



ma’ruza qilishi kerakligi haqida xabar berishdi. U Samarqand shahridagi 13-umumta’lim maktabi o‘quvchilari bilan davra suhbatida ishtirok etdi. Tadbirda yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish, ularni vatanparvar insonlar qilib ulg‘aytirish mavzusida gap bordi. Nargiza Burxanova ham so‘zga chiqib, kelajagimiz egalariga hayotda munosib o‘rnini topishi borasida o‘z tavsiyalarini berdi.

Uchrashuvdan so‘ng shahardagi «Bog‘i Feruza» mahallasi tomon yo‘l oldik. U yerda Nargiza opa nizoli, ajrim yoqasidagi oilalardagi muammolarini o‘rganishi zarurligi bois, mahalla yettiligi bilan o‘zaro muloqotda bo‘ldi. Jumladan, Sabina Komilovaga (ism-sharifi o‘zgartirildi) aliment undirish borasidagi haq-huquqlarini tushuntirishdi. Kun davomida maktablarning birida uchrashuv, profilaktik suhbatlar, ishchi guruh bilan maslahatlashuv o‘tkazdi. Yana allaqancha masalalarni hal qilishga ulgurdi. Shundan so‘ng oilasi bag‘riga oshiqdi. U 6 nafar farzandning onasi.

– To‘ng‘ich qizimni turmushga uzatganman, u tibbiyot sohasida tahsil oladi, yaqinda buvijon bo‘laman. Ikkinchi qizim menga havas qilib IIV Samarqand akademik litseyida o‘qiyapti. Shu yil IIV Akademiyasiga kirish uchun imtihon topshiradi, – deydi Nargiza Burxanova.

U farzandlarining bilimli, komil insonlar bo‘lib ulg‘ayishi uchun o‘zi ham muntazam o‘qib-izlanadi, tirishib-tirmashadi. Opaning uyda barcha yumushlarni badastir qilishiga, pazanda beka ekanligiga ham guvoh bo‘ldik. Xonadonidagi orastalikni, saranjom-sarishtalikni, fayzni ko‘rib, hayratimizni yashirolmadik.

U xizmatdan charchab kelgan bo‘lsa-da, tezda chuchvara pishirib, bizni mehmon qilishga taraddudlandi. Birozdan so‘ng oshxonadan yoqimli hid taraldi. Suhbatimiz bir piyola choy ustida davom etdi. Ammo bu gal xizmat haqida emas, oddiy hayot, orzular va umidlar to‘g‘risida.

Shunda biz yana bir haqiqatga amin bo‘ldik. Katta inspektor Nargiza Burxanova nafaqat o‘z kasbining fidoyisi, balki oilasining suyanchig‘i hamdir. U xizmat vazifasini va oila tashvishlarini birdek uddalab kelmoqda. Qahramonimiz ertaga yana yangi umidlar bilan xizmatga oshiqadi.

Umida MAMADALIEVA,
o‘z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.



SAYYOHLIK SALOHIYATI OSHMOQDA

Andijon viloyati nafaqat, iqtisodiy salohiyati, balki turizm imkoniyatlari bilan ham mamlakatimizda alohida o‘rin tutadi. Ushbu zaminda madaniy-ma’rifiy, ekologik, gastronomik turizm, tog‘, ziyorat turizmi, agroturizm hamda ichki turizm yo‘nalishlari jadal rivojlanmoqda. Viloyatda 400 dan ortiq sayyohlik obektlari mavjud bo‘lib, ular orasida muqaddas ziyoratgohlar, tarixiy obidalar, muzeylar, dam olish maskanlari va zamonaviy turistik majmualar alohida o‘rin egallaydi.

So‘nggi yillarda sohani rivojlantirish maqsadida amalga oshirilgan keng ko‘lamli ishlar o‘z samarasini bermoqda. Xususan, o‘tgan yil davomida Andijon viloyatiga 1 million nafardan ziyod xorijiy, 6 million 650 ming nafardan ortiq mahalliy sayyoh tashrif buyurgani buning yaqqol isbotidir.

Xo‘jaobod tumanidagi «Imom ota» turizm qishlog‘i, Xonobod shahri, Buloqboshidagi «Shirmonbuloq» maskani, Jalolquduqdagi Qutayba ibn Muslim ziyoratgohi kabi manzillar viloyatning turizm xaritasida muhim o‘rin egallamoqda. Ayniqsa, tog‘ turizmini rivojlantirish maqsadida yangi sayyohlik yo‘nalishlari tashkil etilib, mehmon uylari, dam olish hududlari, servis shoxobchalari barpo etilmoqda. «Imom ota» turizm qishlog‘idagi 70 ta mehmon uyi bir vaqtning o‘zida ming nafardan ortiq sayyoh va ziyoratchilarni qabul qilish imkoniyatiga ega.

Turizm rivojlangan sari xavfsizlik masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etib boraveradi. Shu bois viloyat ichki ishlar organlari tomonidan sayyohlarning xavfsizligini ta’minlash, jamoat tartibini saqlash va turistik obektlarni muhofaza qilish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Viloyatdagi sayyohlik obektlarida xavfsizlikni ta’minlash maqsadida ichki ishlar organlari tomonidan qo‘shimcha nazorat postlari tashkil etilgan. Turizm hududlarida kecha-yu kunduz xizmat olib borilmoqda.

– Germaniyadan O‘zbekistonga sayohat qilish uchun keldim, – deydi germaniyalik sayyoh Martin Shuls. – Afsonaviy Samarqand va Buxoro shaharlarini ko‘rganman. Andijon haqida avval ko‘p ma’lumotga ega emas edim. Bu yerga kelgach, viloyatning turizm salohiyati juda katta ekanligiga amin bo‘ldim. Ayniqsa, tog‘li hududlar, ziyoratgohlar va mahalliy aholining mehmondo‘stligi menda katta taassurot qoldirdi. Yaqin yillarda Andijon xalqaro sayyohlar uchun yanada jozibador maskanga aylanishiga ishonaman.

– Viloyatimizdagi asosiy turizm va ziyorat obektlarida jamoat tartibini saqlash, ziyoratchilar hamda sayyohlar xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha tizimli choralar ko‘rilmoqda, – deydi viloyat IIB Axborot xizmati rahbari, kapitan Sherzodbek Nuriddinov. – Turistik hududlarda xizmat qilayotgan xodimlar tomonidan profilaktik nazorat ishlari olib borilmoqda. Qator obektlarda zamonaviy kuzatuv kameralari o‘rnatilgan bo‘lib, ular orqali vaziyat uzluksiz kuzatib boriladi. Shuningdek, sayyohlar istalgan vaqtda ichki ishlar organlari xodimlariga murojaat qilishi mumkin. Asosiy maqsadimiz mehmonlarimiz o‘zlarini xavfsiz va xotirjam his qilishlarini ta’minlashdan iborat.

Andijonda turizmni rivojlantirish va xavfsiz muhit yaratish borasidagi ishlar bir-birini to‘ldirmoqda. Yangi sayyohlik yo‘nalishlari, zamonaviy infratuzilma, ziyoratgohlarni obodonlashtirish, tog‘ turizmini rivojlantirish va ishonchli xavfsizlik tizimi Bobur yurtining sayyohlik salohiyatini yanada yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Saminjon HUSANZODA,
o‘z muxbirimiz.

Andijon viloyati.



OTAMEROS NURAFSHON YO‘L

Oilada farzandlar ko‘zidagi shodlik, ayolning yuzidagi tabassum va hayotidan mamnunlik shu qo‘rg‘onning suyanchi, ya’ni otaning mehnati-yu mehridan yaraladi. Toshkent shahar IIBB huzuridagi Qo‘riqlash boshqarmasi xodimi, kapitan Yermahamed Abduvalitovning mo‘jaz xonadonida ham ana shunday baxtiyorlik, fayz-u baraka, hotirjamlik xukmron edi. Afsus, taqdir ekan... Kutilmagan fojia uni bu yorug‘ olamdan juda erta olib ketdi.

O‘sha mash’um tun soat taxminan 2:40 lar atrofida kapitan Yermahamed Abduvalitov otryad navbatchisi sifatida poytaxtimizning Amir Temur ko‘chasida joylashgan Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankini qo‘riqlayotgan xodimlar xizmatini tekshirib, binodan tashqariga chiqdi. Navbatdagi obektni nazorat qilish maqsadida xizmat mashinasiga yaqinlashganida ortidan katta tezlikda harakatlanib kelayotgan «Nexia» rusumli avtomobil uni urib yubordi. Oqibatda kapitan o‘ta og‘ir jarohat olib, voqea joyida vafot etdi...



«FARZANDLARIM ZIYOLI BO‘LSIN!»

– Turmush o‘rtog‘im bag‘rikeng, samimiy va mulohazali inson edi, – deya xotirlaydi Dilbar Asqarova. – U kishi o‘z kasbini yaxshi ko‘rardi. Lekin xizmati qanchalik mashaqqatli bo‘lmasin, oilasi, yaqinlari va ayniqsa, ota-onasini e’zozlash, ularning hurmatini joyiga qo‘yishga vaqt topardi. Farzandlarimizning kelajagi haqida ko‘p qayg‘urardi. O‘qish-o‘rganish borasida qizim, o‘g‘limga talabchanlik qilsalar-da, kezi kelsa ularning xohish-istaklari uchun borini berishga tayyorligi yuragidagi otalik mehrining cheksizligidan dalolat edi. Har kuni ishga ketayotib: «Bolalarning darsini nazorat qil, ustozlari bilan bog‘lanib tur», –



deb tayinlardilar...

Yermahamed Abduvalitov bu yorug‘ olamni juda erta tark etdi, biroq uning «Farzandlarim ziyoli bo‘lsin!» degan orzusi ayoli, farzandlari uchun mayoqqa aylandi. Turmush o‘rtog‘ining vafotidan so‘ng barcha mas’uliyatni yelkasiga olib, mehr va qat’iyat bilan farzandlarini tarbiya qildi. Mehnat va sabrning mahsuli Raziya va Narimanning otasi boshlab bergan nurafshon yo‘lning munosib davomchisi bo‘lishga ahd qilishida ko‘rindi. Ne baxtki, bu oilaga kelin bo‘lib tushgan Malika Yerejepova ham ichki ishlar organi xodimasi bo‘lgani bois shu ulug‘ safga qo‘shildi.

JIGAR DOG‘I VA MANGU SOG‘INCH

Jigar dog‘i – og‘ir musibat. Ukam oilamizdagi besh o‘g‘ilning uchinchisi edi, – deya xotirlaydi Ergash Abduvalitov. – Yermahamed yaqinlariga nihoyatda oqibatli, lafzi halol, qat’iyatli edi, hayot sinovlaridan aslo cho‘chimasdi. Ukam vafotidan so‘ng Prezidentimiz farmoniga ko‘ra «Jasorat» medali bilan mukofotlandi.

Taqdirlash marosimiga jiyanim Narimanni yetaklab kirib borarkanman, ukamning xizmatdosh do‘stlarini ko‘rib, yuragimdagi jigarni yo‘qotish dardi yanada ortdi. Chunki safda hamma bor, ammo biz kutgan, biz sog‘ingan Yermahamed yo‘q edi...

Farzand dog‘ini hech kimga ko‘rsatmasin ekan. «O‘nta bo‘lsa, o‘rni boshqa» deganlaridek, ukamning o‘limidan so‘ng bu musibatni ko‘tara olmagan onajonim, so‘ngra otajonim birin-ketin olamdan o‘tishdi.

Mana, o‘sha mash’um kunga yaqinda o‘n yil bo‘ldi. Ammo hanuzgacha Yermahamedning yo‘qligiga ishongim kelmaydi. Go‘yoki aka-ukalar bir dasturxon atrofida jam bo‘lganimizda, o‘sha hayotsevar, yuzidan kulgi arimaydigan ukam eshikdan kirib keladigandek tuyulaveradi.

YUTUQLARIMNI OTAM BILAN BO‘LISHGIM KELADI

– Mening qiziqishlarim otam uchun nihoyatda muhim edi, – deya xotirlaydi IIV Akademiyasi Kriminologiya kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kapitan Raziya Buranova. – Xoh suzish va voleybol mashg‘ulotlari bo‘lsin, xoh til o‘rganish – otam meni doim qo‘llab-quvvatlardi. Ayniqsa, litseyda ingliz va xitoy tillarini o‘rganishga kirishganimda, ularning chehrasidagi quvonch hali ham ko‘z oldimdan ketmaydi.

Otamning vafotidan so‘ng, uning izidan borishni dilimga tugib, IIV Akademiyasiga o‘qishga kirdim. Erishgan barcha muvaffaqiyatlarimni o‘sha beg‘ubor havas, otamning menga bo‘lgan ishonchi tufayli qo‘lga kiritdim, deb o‘ylayman. Bugun har bir yutug‘imni otam bilan bo‘lishgim keladi. Ularning meni mahkam bag‘rilariga bosib, erkalashlarini qo‘msayman. Otamning porloq xotirasi meni hamisha yangi zafarlar sari undayveradi.







OTAMNING IZI – MENING YO‘LIM

– Otam olamdan o‘tganida 14 yoshda edim, – deydi Yangihayot tumani IIOFMB huzuridagi Tergov bo‘limi katta tergovchisi, katta leytenant Nariman Buranov. – Ular ishdan kelganida opam ikkimiz oldilariga yugurib chiqsak, bizni erkalab, galma-gal bosh kiyimini bizga kiygizib qo‘yardilar. O‘ylab qarasam, o‘sha lahzalar ushbu sharafli kasbga nisbatan ilk mehr uchqunlarini yoqqan ekan.

Bolalikda juda sho‘x edim. Biroq matematikani yaxshi bilardim. Otam o‘qishimni qattiq nazorat qilardilar. Bu fanga bo‘lgan qiziqishim esa barcha sho‘xliklarimni «yuvib ketadigan» asosiy jihatim edi.

Matematikada algoritm tushunchasi bor, ya’ni to‘g‘ri yechimga erishish uchun amallarni aniq, ketma-ketlikda, zukkolik bilan bajarish talab etiladi. Bugungi kunda ichki ishlar organlarining tergov yo‘nalishida xizmat qilar ekanman, bu soha ham xuddi matematika kabi diqqat va mantiqiy izchillikni talab qilishini angladim. Ayni damlarda har bir ishimda otamning xizmatiga bo‘lgan mas’uliyati, burchiga sadoqatini ibrat, muhim mezon deb bilaman.

QAYNONAM – KAMOLIMIZ QALQONI

– Har bir oilaning ezgu an’analari, birligi va borligini himoya qilib turuvchi ustuni bo‘ladi, – deydi Sergeli tumani IIOFMB huzuridagi Tergov bo‘limi tergovchisi, katta leytenant Malika Yerejepova. – Xonadonimizdagi o‘zaro hurmat, samimiyat va bir-birini tushunish fazilatlarini nihoyatda qadrlayman. Har gal dasturxon atrofiga jam bo‘lib o‘zaro suhbatlashganda, bu insoniy qadriyatlar urug‘ini oilamizga qaynotam sepib ketganiga amin bo‘laman. Ayni damlarda oilamiz ustuni bo‘lgan qaynonamdagi bag‘rikenglik va chin insoniylik bizning murakkab sohada yetuk mutaxassis bo‘lib kamol topishimizda eng mustahkam qalqon bo‘lib xizmat qilmoqda.

Misol uchun, hozirda mas’uliyatli sohaning yosh xodimasi hamda ona sifatida qaynonamning beminnat ko‘magini har qadamda his etaman. Ular har tong qayniopam, turmush o‘rtog‘im va meni: «Xizmatingizga xotirjam boraveringlar, bolajonlar mening bag‘rimda», – deya duolar bilan kuzatganlarida, qalblarida rahmatli qaynotamdan meros qolgan yuksak mas’uliyat va matonatni tuyaman.

XULOSA O‘RNIDA

Kapitan Yermahamed Abduvalitov bugun jisman oramizda yo‘q, ammo u yaratgan qo‘rg‘on qulamadi. «Ichki ishlar organi xodimi» degan sharafli nom bu qo‘rg‘onda shunchaki kasb emas, balki avloddan-avlodga o‘tuvchi muqaddas qadriyatga aylandi. Jasorat sohibi bo‘lgan otaning izidan borayotgan farzandlari uning hamisha dillarida saqlashyapti. Ular otameros nurafshon yo‘ldan yangi zafarlar sari odimlamoqdalar.

Gulnoza TURG‘UNBOEVA,
o‘z muxbirimiz.



Ўша пайтларда радиоалоқа сифати паст эди. Рация узилиб-узилиб ишларди. Жиззахга кетишдаги катта трасса бўйидаги тирбандликдан капитан Жамол Холиқов асабийлашарди. «ЗИЛ» юк автомашинаси «Москвич»га урилиб, уни зовурга тушириб юборган. Енгил автомобиль ичидаги тўрт нафар йўловчининг барчаси ҳалок бўлганди. «ЗИЛ»нинг ўзи йўлга кўндаланг бўлиб туриб қолган, ҳар иккала томонда юзларча автомашина ўта олмасдан тўпланиб турарди.

«УЧ ЮЗ ЕТМИШ БИРИНЧИ» АЛОҚАДА!»

Юк автомашинасини олиб ташлаш учун автокран зарур бўлаётганди. Шу масалада рация орқали Янгиер тумани ИИБ ЙҲХБга алоқага чиқишнинг ҳеч имкони бўлмаётганди. «ЗИЛ»нинг ҳайдовчиси ўта оғир аҳволда эди. Жамол бошқалар кўмагида автомашинанинг пачақ бўлиб кетган эшигини лўм билан очди. Рул ҳайдовчини қисиб қолганди. Уч-тўрт кишилашиб уни суғуриб олишди. Яхши одамлар ҳам кўпда! Бирпасда кимдир уни касалхонага олиб боришга тайёрлигини билдирди.

Шу тариқа ҳайдовчи зудлик билан касалхонага жўнатилди. Капитан марказ билан алоқа ўрната олмагач, вазиятни дарҳол назоратга олишга киришди. Барча масъулиятни ўз зиммасига олиб, юз метрлар нарида машиналар оралиғида турган «КамАЗ» ҳайдовчисидан кўмак сўради. Бир амаллаб тирбандлик оралиғидан унга йўл очди. Одамлар тросни улашворишди. Шиналари бўшаб, асфальтга ўтириб қолган «ЗИЛ» худди танк каби оғир бўлиб қолганди. Уни четга тортиб чиқариш учун бир соатлар уринишга тўғри келди.

Бу орада бошқа ҳайдовчилар кўмагида «Москвич»да ҳалок бўлган йўловчилар чиқариб олинди. Ҳаммаси ўттиз-ўттиз беш ёшли йигитлар. Афсуски, автоҳалокат туфайли уларнинг ҳаёти эрта якун топганди. Ва ниҳоят етиб келган тергов-тезкор гуруҳи таркибидаги экспертлар ишга киришди. Маълум бўлишича, енгил автомобилдагиларнинг барчаси маст ҳолатда бўлган. Ҳатто ҳайдовчининг ҳам ўта маст бўлгани аниқланди. «Москвич» йўлнинг қарама-қарши томонига чиқиб борган. «ЗИЛ»нинг ёнбош томонига урилгач, зовурга тушиб кетган.

Эртаси куни бўлиб ўтган эрталабки хизмат вазифасини бажаришдаги қатъияти учун Сирдарё вилояти ИИБ ЙҲХБ катта нозири, капитан Жамол Холиқовга вилоят ИИБ раҳбари номидан ташаккурнома эълон қилинди.

Катта нозир Жамол Холиқов ўз ишини ниҳоятда севар, эрта тонгдан хизматга отланарди. Вилоят ҳудудидан учта халқаро аҳамиятга эга йўл ўтганди. Хусусан, Тошкент – Самарқанд йўлида қатнов энг тиғиз эди. Лекин ушбу йўлда яхши шарт-шароит яратилгани, қарама-қарши йўналишлар тўсиқ билан ажратилгани автоавария ҳолатларидан сақлашда муҳим аҳамиятга эга бўларди.

> ***Энг оғир вазият Ўш – Жалолободдан бошланиб, Жиззахгача келадиган А-376 автомагистралида эди. Фарғона водийсини воҳа билан боғлайдиган ушбу трассада қатнов ниҳоятда тиғиз, энг кўп йўл-транспорт ҳодисалари ҳам шу ерда содир бўларди. Шунинг учун ҳам бу автомагистралда беш нафардан ўн нафаргача ЙҲХБ инспекторлари навбатчилик қилар, вазиятни тартибга солиш учун кечалари ҳам ҳушёр туришга тўғри келарди.***

1995 йилда анчагина тажриба тўплаган майор Жамол Холиқовни Сирдарё вилояти ИИБ ЙҲХБ штаб бошлиғи лавозимига тайинлашди. Унинг хизматдаги шартли чақирув рақами «371» эди. Рация орқали бирор ҳудудга «уч юз етмиш биринчи» бораётгани тўғрисида хабар берилса, ходимлар дарҳол ўзини тартибга солишар, камчиликларни бартараф этиш ҳаракатига тушиб қолишарди.

Янги лавозимга тайинлангач, масъулият ҳам шунга яраша янада ортди. У баъзан ярим тунгача йўлларда қолиб кетар, ҳаракатни тартибга солиш ҳақиқий машаққат эди. Ўша пайтларда аксар йўллар ўнқир-чўнқир, йўл белгилари жудаям кўзга ташланавермас, ҳайдовчилар орасида эса спиртли ичимлик ичиб транспорт воситасини бошқарадиганлар ҳам тез-тез учраб турарди.

Куз келиши билан йиғим-терим мавсуми бошланар, юзлаб тракторлар тиркамасига пахта ортиб йўлга чиқар, бу эса йўл ҳаракатида ўзига хос мураккабликларни келтириб чиқарарди. Тракторларнинг аксариятида огоҳлантирувчи чироқлар деярли ишламасди. Уларни пахта заводларига кузатиб боришга тўғри келарди. Бу вазифа Жамол Холиқов бошчилигидаги инспекторлар зиммасига юкланарди. Афсуски, шунга қарамасдан йўлларда тез-тез кўнгилсизликлар юз бериб турарди.

Ярим кечаси Мирзаобод туманидаги қишлоқдан чиққан «Газ-24» автомобили кескин бурилиш пайтида орқа қизил чироқлари бўлмаган трактор тиркамасининг бурчагига урилади. Тиркаманинг пўлат учи ҳайдовчининг бошини қаттиқ жароҳатлайди. Натижада ҳайдовчи шу заҳоти ҳаётдан кўз юмади. Енгил машинада кетаётган яна икки киши эса оғир жароҳат олади.

Воқеа жойига зудлик билан етиб келган Жамол Холиқов оғир аҳволдаги йўловчиларни машинасига ўтқазиб, дарҳол Гулистондаги марказий шифохонага йўл олади. Ўзи жабрланганларнинг тепасида туриб, қон топиб келиш, дори-дармон билан таъминлашга бош-қош бўлади. Натижада уларнинг ҳаёти сақлаб қолинади.

– Бундай яхшиликни қандай унутиш мумкин? – дейди улардан бири – Мирзаобод туманининг «Мирзачўл» маҳалласида яшовчи Ҳаким Абдураҳимов. – Мен бутун умр Жамол акадан миннатдорман. У кишидаги юксак инсонийлик фазилатини фарзандларимга, барча яқинларимга намуна қилиб кўрсатиб келаман.

Мана шундай юксак фазилатга эга бўлган шахснинг хизмат фаолияти ҳам намунали якун топди. У 2008 йилда тантанали равишда, иззат-икром билан пенсияга кузатиб қўйилди. Ҳозирда Боёвут тумани Мудофаага кўмаклашувчи «Ватанпарвар» ташкилоти раҳбари сифатида фаолият кўрсатяпти. Жамол Холиқовнинг ишини ўғли давом эттирмоқда. Катта сержант Лазиз Жамолов Сирдарё вилояти ИИБ ЖХХ ЖТСБ Кинология бўлими кинологи.

Абдураҳмон МУСТАФОҚУЛОВ,
ўз мухбиримиз.

Сирдарё вилояти.



HASHAR

Hashar Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan udumlarimizdan biri bo‘lib, qadimdan o‘zbek xalqi hayotida muhim o‘rin tutib kelgan. Hashar bu ko‘pchilikning bir yoqadan bosh chiqarib, bir maqsadda birgalashib harakat qilishidir.

Qadim zamonlarda ota-bobolar qishloqlarda, yozloqlarda xo‘jalik ishlarini ko‘p hollarda hashar yo‘li bilan bitirib olishgan. Yozloqlarda ko‘milgan toklarni ochish, kesish, tarash, bog‘ bellash, xashak-somon to‘plash, bog‘ hosilini yig‘ib-terib olish, kuzgi yaxob suvi berish, katta ariq, kanallar boshlab kelish, shox ariqni qish arafasida kovlab tozalash kabi og‘ir ishlarning hammasi xuddi shu hashar yo‘li bilan bajarilgan.

Chunki odamlarning yakka xo‘jaliklarida bog‘-tomorqalar, hosildor yerlar katta va sermehnat bo‘lib, dehqondan ko‘p qo‘l kuchi talab qilgan. Shuning uchun ham o‘zbeklar serfarzand, serog‘ayni, mo‘l qarindosh-urug‘li bo‘lib, xalq orasida «It bo‘l, qush bo‘l – ko‘p bo‘l» degan maqol yuradi. «Yolg‘iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong‘i chiqmas» degan maqol ham shundan qolgan. Aynan hasharda «Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar» maqoli o‘z kuchini ko‘rsatgan.

Yozloqdan qishloqqa qishlagani ko‘chishdan oldin imorat qurilsa yo xonadonning shikast-rexti tuzatilsa, albatta, ustalardan tashqari hasharchilar ham taklif qilingan. Hashar nafaqat ko‘pchilikning bir kishiga ko‘magi, balki bir kishining ko‘pchilikka, jamoaga yordami tegishi shaklida ham qo‘llangan. Masalan, qishloq mol-holi, podasini har kuni bir odam hashar yo‘li bilan boqqan paytlar ham bo‘lgan. Bu odat hozir ham saqlanib qolgan bo‘lib, unga ko‘pgina qishloqlarda amal qilib kelinmoqda.

Hashar odatining eski zamonlarda, ayniqsa, beva-bechoralar, kambag‘al oilalarga katta yordami tekkan. Qishloqning o‘ziga yetar oilalarga, to‘q xonadonlari birlashib yoki yolg‘iz, kambag‘al beva-bechora, yetim-yesirga hovli-joy qurib berish, go‘dak farzandlarining qo‘lini hallash, to‘y berib, boshini ikkita qilib qo‘yish kabi savob ishlar jamoa-qishloq ahli orasida, albatta, hashar yo‘li bilan bamaslahat bajarilgan.

Hashar bahorda ko‘chalarni tozalash, ko‘chatlar ekish, ariqlar ochish, yo‘llar qurish, mozorlarni obodonlashtirish, ko‘priklar qurish, jamoat joylarini (machit, maktab, madrasa) tartibga keltirish, shifoxonalar qurish borasida ham ko‘pchilikka foyda keltirgan. Qishloqlarni obodonlashtirish, madaniy-maishiy muassasalar barpo qilish, turli sharofat ishlarini amalga oshirishda qo‘llanilgan. Atoqli adib Abdulla Qodiriy:

Hashar ishlab uxlag‘ong‘a
Mahshar kuni azob o‘lmas...

– deya mutoyiba qilgan.

Hasharning o‘ziga xos xususiyati shundan

iboratki, u beminnat, bepul, beta'ma bajarilgan, hashar ishi ko'pchilik tomonidan tekin ado qilinadi. Eski zamonlarda ona-momolarimiz hashar odatini to'ylar oldidan gilam to'qish, bichish-tikish, qavish ishlarida ham qo'llashgan. Qaysi oilada to'y kutilsa, keksa ayollar o'sha yerga ko'chib o'tishgan.

Mamlakatimizning janubiy viloyatlari – Qashqadaryo, Surxondaryoda hasharga o'xshash yana bir odat mavjud. Bu «hayrov» deb ataladi. Bu tadbir – hashar bahordamas, qora tiramoh – qishda o'tkaziladi. Qishloq-shaharlarga obihayot olib keladigan bosh ariq hashar yo'li bilan loy-gildan tozalanib, yilda bir bor amalda qayta kovlanadi. Bu marosim o'tadigan kuni yoshu qari hasharga – to'g'rirog'i, hayrovga chiqadi. Hatto yo'ldan, ko'prikdan o'tayotgan yo'lovchi ham otdan tushib, qo'liga belkurak olib, ariq qazigan. Yana bir qiziq joyi ariqdagi hayrovchilardan biri ko'prik ustiga chiqqan yo'lovchiga belkurak uchida non «uzatgan». Ne'matdan ko'ziga surtib, totingan shaxs bu ramz ila o'zini kurashga chorlayotganliklarini darhol tushungan.

Aytishlaricha, oppoq soqolli chol ko'prikka yaqinlashganda, bir yosh yigit o'ziga xos hazil qilmoqchi bo'lib, keksa yo'lovchiga non tutgan. Chol udumni bajargach, eshakdan tushib, bamaylixotir yechinib, yolg'iz yaktak-lozimda bir belbog' bilan qolgan. Yigit hayratlanib, bu chuvak chol bilan kurashishini ham, kurashmasligini ham bilmay, hayron bo'lib turganda, mo'ysafid ohista qafas olisharkan, yigitni dast ko'tarib aylantirib, kuragini yerga tekkizgan. Bo'lgan kulgi, bo'lgan qiyqiriq. Hayrov tadbiri ishtirokchilari ichaklari uzilguncha rosa kulishgan. Shundan xalqimizda «Sinamagan otning sirtidan o'tma», «Kichkina demang bizni, ko'tarib uramiz sizni» degan maqollar mavjud.

O'tgan asrda mamlakatimizning ko'pgina shahar va qishloqlarida jamoat binolari, ko'priklar, yo'llar, ayrim kichik shaharlar hashar yo'li bilan bunyod etilgan. Turli inshootlar – ko'p millatli xalqlarimiz tomonidan O'zbekistonda Katta Farg'ona, Shimoliy va Janubiy Farg'ona kanallari, Toshkent kanallari, (Shimoliy va Janubiy) Zarafshon kanali, Kattaqo'rg'on suv ombori, ko'pchilik katta suv omborlari, Chorjo'y–Qo'ng'irot temir yo'li qurilishi kabilar ham umumxalq hashari yo'li bilan barpo qilingan.

Hashar xalqning mehnat jasorati, tashabbuskorligi va bunyodkorlik qobiliyatini yanada rivojlantirib, fuqaro sifatida kamol toptirdi. II jahon urushi yillarida ham hashar odatining xalqimizga ko'p beminnat yordami tegdi. Frontga hashardan to'plangan samolyot, to'p, tank, oziq-ovqat, kiyim-kechak kabi ko'plab zarur narsalar tuhfa qilindi.

1966 yilgi Toshkent zilzilasida butunittifoq umumxalq hashari poytaxtimizning keyingi hayotini juda katta iz qoldirdi. Bularning barchasi zamonning talabi, sharoitning og'irligidan kelib chiqqan majburiy zarurat edi. Hashar bir-ikki kun, ayrim hollardagina bir necha kungacha cho'zilardi.

Hashar paytida tezkorlik bilan ishlaydigan kishilar hamisha olqishga sazovor bo'lishgan. Masalan, imorat qurishda uyning burchak devorini ko'tarish eng murakkab ish hisoblanadi. To'rt kishi to'rtta burchakdan tushib devor ura boshlaydilar. Kimki birinchi bo'lib devorni bitqazsa, uning yelkasiga to'n yopiladi va kelgusi hashargacha eng devkor, ya'ni ishchan odam deb hisoblanadi. Xo'sh, shuncha odamga tushlik ovqat topish osonmi?

Hashar qilayotgan kishiga buning ham hech og'irlik tomoni yo'q. Nega deganda, hasharchilarning ahli ayoli, onalari tushlik paytida har xil taomlar pishirib, hashar bo'layotgan yerga olib borishadi. Erkaklar shu yerda chordona qurib o'tirgancha, ayollarning oshpazligiga, kayvoniligiga ham baho berishadi.

Ko'rdingizmi, bir odat tufayli qanchadan-qancha boshqa urfu odatlar ham kelib chiqadi. Hashar bo'layotgan joydan qolmaslikka harakat qilgan o'g'lon hamisha yengil kayfiyatda yurishga haqlidir, chunki, boshiga biror mushkul ish tushgudek bo'lsa, unga ko'maklashmoqqa butun bir xalq hamisha shay turadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatni qayta qurish, ulkan bunyodkorlik ishlarida hashar odatining o'rni va roli katta bo'lmoqda. Beminnat, beg'araz milliy qadriyat respublikamiz zamonaviy rivojida muhim o'rin tutmoqda.

Mahmud SATTORning
«O'zbek udumlari» kitobidan olindi.



Деятельность подразделений миграции и персонализации распространяется на лиц, охваченных миграционным и паспортным контролем. Важнейшей их задачей является формирование у соотечественников чувства ответственности и бережного отношения к документу, удостоверяющему личность, а также разъяснение иностранным гостям и лицам без гражданства установленных правил и порядка пребывания в стране.

ФОРМУЛА ДОВЕРИЯ

В Алмалыке проживает порядка 160 тысяч человек. Это один из крупных промышленных центров республики.

– У нас почти всегда многолюдно, но мы стремимся организовать работу так, чтобы не возникало очередей и излишней суеты. Подготовка документов посетителей осуществляется в короткие сроки, – говорит начальник отделения миграции и персонализации ОВД города Алмалыка старший лейтенант Баходир Каримов. – Ежедневно оформляем свыше 100 ID-карт, около 30 загранпаспортов. Среди заявителей немало иностранцев – граждан Казахстана, России, Таджикистана, Туркменистана, Индии, Китая, Турции.

В отделении созданы необходимые условия как для посетителей, так и для персонала. Автоматизированные информационные системы «Manzil», «E-mehmon» значительно ускоряют процесс обработки данных.

Сотрудниками подразделения осуществляется выездное обслуживание для пожилых людей и лиц с инвалидностью.

– В соответствии с заявлением сына Валентины Макаровой, проживающей в махалле имени Ахмада Яссави, наш специалист посетил ее дом. Валентина Ивановна в почтенном возрасте – ей 98 лет. С помощью мобильного оборудования оформили гражданке ID-карту, – говорит Б. Каримов.

Адресная работа с обращениями – ключевой инструмент укрепления доверия населения к органам правопорядка, механизм «обратной связи». Эта система позволяет держать руку на пульсе общественных настроений. Осуществляя данную деятельность, сотрудники подразделения особое внимание уделяют тем, кто длительное время находится в статусе лица без гражданства. В результате детальной проработки обращений за истекший период нынешнего года 61 житель Алмалыка обрел гражданство Узбекистана. Среди них – Сарвар Турсунбоев:



– Я являлся лицом без гражданства. Сегодня стал полноправным гражданином республики. Для меня это огромное событие. Искренне признателен Президенту страны.

В ходе встреч и профилактических бесед в махаллях сотрудники подразделения разъясняют жителям, что к документу, удостоверяющему личность, необходимо относиться с большой ответственностью. Кроме того, специалисты рекомендуют тем, кто решает осуществлять трудовую миграцию, обращаться в Агентство миграции, рассказывают о рисках взаимодействия с сомнительными «проводниками». Особо подчеркивается: в случае утери паспорта за рубежом необходимо обратиться в ближайшее дипломатическое представительство или консульское учреждение Узбекистана для получения сертификата на возвращение. Недавно такое мероприятие состоялось в махалле Камалак.

Ответственно относятся к своим обязанностям сотрудники подразделения: инспекторы старший сержант Сардор Абдурахмонов, младший сержант Зухриддин Абдураимов, паспортист рядовой Даврон Гафуров. Их деятельность направлена на результат – сделать так, чтобы каждый посетитель остался доволен, что напрямую укрепляет доверие населения к органам внутренних дел.

Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.

Ташкентская область.

Первые прообразы гербов появились еще в античности: в Древнем Риме и Греции воины украшали щиты рисунками животных и мифических созданий, а знать использовала личные печати и монеты с эмблемами.

ЯЗЫК СИМВОЛОВ:
от щита до тамги

Однако классические правила геральдики сложились лишь в XII–XIII веках, когда гербы обрели наследственный статус. При их создании строго соблюдался цветовой контраст между металлами и эмалями (финифтью). В XV веке во Франции и Испании для контроля этой системы была введена официальная должность герольдмейстера – специалиста, который вел учет и толкование гербов, подтверждающих знатность и заслуги рода.

Образы благородных птиц издавна сопровождали правителей нашего региона. Яркий пример тому – султан Джалолиддин Мангуберди, правивший в XIII веке. Согласно историческим хроникам, личным тотемом и поэтическим воплощением характера султана являлся благородный сокол (лачин). Эта птица служила олицетворением бесстрашия, стремительности и воинской доблести.

Амир Темур вошел в историю как создатель огромной империи, простиравшейся на рубеже XIV–XV веков от Индии до Ближнего Востока. Функцию государственной символики в его владениях выполняли личные знаки и тамги.

Самым известным символом Темура стала композиция из трех равных кругов, расположенных треугольником. Этот знак чеканился на монетах, наносился на печати и украшал архитектурные памятники. Чаще всего кольца расшифровывают как три части света (Азию, Европу и Африку), которые Темур объединял под своим началом. Другие трактовки связывают их с союзом светской, военной и духовной власти или символом объединения множества племен. Три круга стали главным визуальным маркером эпохи, провозглашавшим силу и законность династии.

МЫ ДОБИЛИСЬ ЭТОГО ВМЕСТЕ

Ключ к счастью в семье один – это согласие, взаимная искренность. За шестнадцать лет совместной жизни с супругом я многократно в этом убеждалась.



Мой муж, капитан Азизбек Хамидов, является инспектором профилактики ОПП ОВД Сырдарьинского района. Служит в махалле Фаравон. Сами мы родом из Галляаральского района Джизакской области. С тех пор как переехали в Сырдарью, прошло уже немало времени. Супруг выбрал путь сотрудника органов внутренних дел и ради этого согласился уехать далеко от мест, где родился. Я же полностью его поддержала…

Правду говорят: каждый сам строит свое счастье. Что посеяли – то и взошло, что поливали – то расцвело. У нас родилось трое детей. Живем в махалле, где служит муж.

Выходные дни для нас превращаются в настоящий праздник. Азиз ака сам готовит плов. При первой же возможности он старается отвезти нас в горы, на берег реки или организует интересные семейные выезды, что доставляет детям огромную радость. Недавно мы побывали в Центре исламской цивилизации в Ташкенте. Величественный комплекс оставил незабываемые впечатления.

Я многому научилась у своего мужа. Если у кого-то из махаллинцев возникает проблема, он не ограничивается лишь мерами правового характера, а старается оказать всестороннюю поддержку. Мне он тоже советует поступать так же. Я работаю медсестрой в поликлинике № 13 Сырдарьинского района. Стремлюсь помогать пациентам, пришедшим за исцелением, не только лекарствами, но и поддерживаю их морально, чтобы они скорее поправились.

…Жизнь не всегда течет гладко. В ней бывают и неожиданные заботы. Недавно у супруга возникла проблема со здоровьем – он перенес операцию. Я поддерживала его во всем, как могла. Сейчас он вернулся в строй. Жизнь снова вошла в свое русло. Мы вместе преодолели еще одно испытание.

Оказывается, наша семейная жизнь вызывает у многих искреннее уважение. Наверное, именно поэтому в минувших годах мы становились победителями районного этапа смотра-конкурса «Самая образцовая семья», проводимого среди сотрудников органов правопорядка. На областном этапе мы хоть и не заняли первое место, но удостоились почетного второго места. Тогда в глубине души я дала себе слово соответствовать этому высокому признанию. Верю, что это обещание будет вести вперед и еще больше укрепит сплоченность нашей семьи.

Шохида ХАМИДОВА.

Сырдарьинская область.

Ensuring human rights and freedoms, preventing crime at an early stage, and creating a safe environment have become key priorities of the state policy in Uzbekistan. In this regard, the crime prevention system in Navoi region is being modernized through innovative approaches and digital technologies.

BOLD STEPS IN THE FIELD



The introduction of digital solutions into the work of prevention inspectors has significantly enhanced the efficiency of their service. Information that was previously maintained in paper form has been digitized, enabling inspectors to access and analyze data more quickly and to work more effectively with individuals at risk of committing offenses. The integration of databases has also strengthened interagency cooperation and accelerated decision-making.

The «E-inspector» system plays an important role in crime prevention. It provides inspectors with prompt access to information on individuals under preventive supervision, women protected by protection orders, socially vulnerable families, and other target groups. The «My inspector» mobile application enables citizens to communicate online with their local prevention inspector, send photos, videos, and messages, and evaluate the inspector's performance. Online monitoring of service activities has improved the quality of task implementation while reducing the influence of the human factor.

The «E-social prevention» platform has also become an effective tool for preventing crime. Through this platform, families and citizens facing social difficulties are identified at an early stage. Issues such as unemployment, family conflicts, social hardship, and factors contributing to unlawful behavior are addressed through targeted measures implemented in cooperation with relevant government agencies.

Special attention is being paid in Navoi region to improving the legal knowledge and professional skills of prevention inspectors. Regular training sessions, seminars, and practical workshops help strengthen their digital competencies, knowledge of current legislation, and communication skills for working effectively with the public.

Efforts to improve the criminogenic situation in mahallas are organized on the basis of thorough analysis and targeted interventions. In particular, preventive campaigns under the «Topical 10-Day Campaign» initiative are conducted in six priority areas, including social protection, youth, minors, women, migration, individuals under preventive supervision, and combating drug abuse.

As a result of these reforms, 219 of the 310 mahallas in Navoi region have been classified as «green» areas, an increase of 30 compared to the previous year. During the first five months of the current year, 29,298 offenses were detected, while crimes and offenses involving young people and women declined significantly.

Translated by
Munavvar Rashidova, docent



Dunyoni yaxshi tomonga o‘zgartirishni istagan inson, avvalo, o‘zini isloh qilishi lozim. Ruhshunoslar tomonidan aytiladigan bu fikr hayotda ko‘p bora o‘z isbotini topgan. Sababi insonning turmush tarzi uning voqelikka qanday nuqtayi nazar bilan qarayotganiga uzviy bog‘liqdir.

QONUN BERGAN IMKONIYAT

UNI QADRLAGANLAR VA BOY BERGANLAR

BIR XIL SHAROIT, IKKI XIL TAQDIR

Xo‘jayli tumani IIB JXX Probatsiya guruhi tomonidan mahkumlarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun tizimli ishlar olib borilmoqda. Joriy yil boshida guruh hisobida 190 nafar shaxs turardi. O‘tgan davr mobaynida ularning 34 nafari hisobdan chiqarilgan. Ayni paytda guruh hisobida 156 nafar shaxs jazo muddatini o‘tab kelmoqda. Ulardan 20 nafarini xotin-qizlar, 41 nafarini yoshlar tashkil etadi.

Ta’kidlash joizki, nazoratdagi shaxslarning ijtimoiy-maishiy muammolarini hal etish, sog‘lig‘ini tiklash va bandligini ta’minlash borasidagi chora-tadbirlar ular uchun chinakam ko‘mak vazifasini bajarmoqda. Davlatimiz tomonidan ushbu toifadagi barcha shaxslar uchun bir xil imkoniyatlar berilyapti. Ammo ana shu imkoniyatlardan har kim har xil foydalanmoqda.

Misol uchun, Qadirqul (ismlar o‘zgartirildi) shaxsga og‘ir tan jarohati yetkazganligi uchun jazoga tortilgandi. Probatsiya guruhi nazorati ostida ushbu jazoni o‘tash davrida muqaddam sodir etgan qilmishidan chin ko‘ngildan pushaymon bo‘ldi. Halol mehnati, xulq-atvori bilan qat’iy tuzalish yo‘liga o‘tganini isbotlay oldi.

Natijada sud qaroriga asosan muddatidan ilgari jazodan shartli ravishda ozod qilindi.

Tashbay Toshkent shahrida ishlab yurgan paytlari o‘g‘rilik jinoyati sodir etdi. Shu boisdan unga nisbatan sud tomonidan ma’muriy nazorat o‘rnatish belgilandi. Jazoni o‘tash mobaynida probatsiya guruhi tomonidan ikki marotaba ishga joylashtirildi. Ammo bunday g‘amxo‘rlikning qadriga yetmadi, belgilangan cheklovlarni mensimadi. Oqibatda sud uning jazosini ozodlikdan mahrum qilish jazosiga almashtirish haqida qaror chiqardi.



Yuqoridagi ikki misoldan ko‘rinib turibdiki, berilgan imkoniyatlar bir xil bo‘lgani bilan taqdirlar ikki xil yo‘nalish olishi mumkin ekan. Bu esa birinchi navbatda insonning xohishiga, intilishiga bog‘liq. Mahkumlarning biri tinch hayotni tanlagan bo‘lsa, ikkinchisi panjara ortiga yo‘l oldi.

HAMKORLIK SAMARASI

– Jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan shaxslarning jamiyatga moslashishi va ish topishida muayyan qiyinchiliklar bo‘lishi tabiiy. Shu bois, ular qayta jinoyatga qo‘l urishining oldini olish maqsadida keng jamoatchilik bilan hamkorlikda profilaktik suhbatlar o‘tkazib kelyapmiz. Joriy yilning o‘tgan davri mobaynida tuman Bandlik bo‘limi va boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda 10 marotaba «Ishga marhamat» tadbiri tashkil etildi.

Natijada axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlangan bir nechta fuqaroning bandligi ta’minlandi. Misol uchun aytadigan bo‘lsak, fuqaro J. Urazniyazov va S. Seytmuratovlar ishga joylashtirildi. Bundan tashqari, 5 nafar kishi kasb-hunar o‘rganishi uchun o‘quv kurslariga jalb etildi, – deydi Xo‘jayli tumani IIB JXX Probatsiya guruhi katta inspektori, kapitan Baxtiyar Karamatdinov.

Nazorat ostidagi shaxslarning qayta jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasi, tezkor-qidiruv bo‘linmalari hamda mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash organlari bilan yaqin hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Mas’ullar tomonidan ozodlikni cheklash jazosini o‘tayotgan shaxslarning yashash joylari doimiy ravishda tekshirilib, ularga yuklatilgan majburiyatlar va qonun talablari muntazam tushuntirib borilmoqda. Shuningdek, belgilangan tartib-qoidaga rioya etib, jazoni o‘tash davrida namunali xulq-atvorga ega bo‘lgan shaxslar muddatidan ilgari shartli ravishda ozod etilmoqda.

Jumladan, joriy yil boshidan buyon joylarda tashkil etilgan sayyor sud majlislari davomida probatsiya guruhi taqdimnomasiga asosan 84 nafar nazoratdagi shaxs muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilingan. Afsuski, berilgan imkoniyatni qadrlamaydiganlar ham uchrab turadi. Shu boisdan o‘tgan vaqt mobaynida jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlab yurgan 6 nafar shaxsning jazosi ozodlikdan mahrum qilish jazosiga almashtirilgan.

XULOSA O‘RNIDA

Chin ko‘ngildan pushaymonlik va halol mehnat insonni har qanday berk ko‘chadan olib chiqishga qodir. Shu bois, ozodlik va osoyishta hayot qadrini kech bo‘lmasdan anglash, berilgan imkoniyatni boy bermaslik har bir kishining o‘z qo‘lida.

Azamat PIRNIYAZOV,
o‘z muxbirimiz.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi.



GULLAR BAYRAMINING TAMAL TOSHI

YOXUD HOSHIMJON NURMATOV SURATIGA CHIZGILAR

Namanganliklarning qalbi go‘zallikka oshno, nafosatga payvand. Bu zaminning har bir go‘shasida anvoyi chechaklar ifori yashab kelmoqda. Bugungi kunda dunyo ahlini hayratga solayotgan Xalqaro gullar festivali hamda shaharning bosh ramzi bo‘lmish muhtasham Bobur bog‘ining yaratilishi, bu yo‘ldagi tarixiy qadamlar fidoyi insonlar, xususan, mirishkor bog‘bon Hoshimjon ota Nurmatovning qutlug‘ nomi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Gullar bayramining 50 yilligi munosabati bilan «Gul diyor madhi» kitobini yaratgan manbashunos-jurnalist Rahimjon Irisovning yozishicha, shaharning kun botish tomonidan «Gulzor» mahallasi bo‘lgan. Qo‘qon xoni Xudoyorxon dastlab Namanganda beklik qilgan davrda ushbu mahalla aholisini shaharning turli tomonlariga ko‘chirgan. Mahallani esa sayilgoh boqqa aylantirib, uni Qo‘qon xonligining vaqf mulkiga bergan.

Chor Rossiyasi tomonidan Turkiston hududi jumladan, Qo‘qon xonligi tasarrufidagi Namangan shahri bosib olingach, sayilgoh istilochilar foydalanuviga o‘tadi. Bog’ «General-gubernator hovlisi», «Chernyayev bog‘i» deb e’lon qilinadi. Hudud yog‘och panjara bilan to‘silib, mahalliy aholi vakillarining kirishi taqiqlanadi.

Sobiq «Gulzor» mahallasining boshqa hududlarda istiqomat qilayotgan fuqarolari ota-bobolaridan meros bo‘lib qolgan gulchilik hunarini davom ettirdilar. Ular gulob, gul sharbati, gulqand, gulasal tayyorlab sota boshladilar. Gul va barg ildizlaridan shifobaxsh damlamalar ham tayyorlashar edi. O‘sha davrlarda Rossiyaning Qozon shahridan ko‘chib kelgan, tatar millatiga mansub To‘qmullinlar oilasi shaharda gulchilikni rivojlantirishga katta hissa qo‘shdilar.

Sovet davlati o‘z siyosatiga aholini ishontirishi uchun ma’lum islohotlar qildi. Shulardan biri sifatida «General-gubernatorning hovlisi» deb atalgan bog‘ ishchi va dehqonlar ixtiyoriga berildi. Bundan mamnun bo‘lgan qadimiy gulchilar avlodi vakillari bog’dagi daraxtlarni mehr bilan parvarishlashdi, gullarning yangi

navlarini ekishdi. Aleksandr Pushkin vafotining 100 yilligi munosabati bilan bog‘ga ulug‘ rus shoirining nomi berildi. O‘sha yillardan boshlab bog‘da turli tadbirlar o‘tkaziladigan bo‘ldi. Bu tadbirlar chinakam xalq sayliga aylanib ketardi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin viloyat rahbarlari Mahkam Kamolov, Tursunboy Ro‘ziboyev, shahar rahbarlari Zohidjon Yo‘ldoshev, Melixon Ibrohimova, Qodirjon Mamarasulov, bog‘ direktori Hoshimjon Nurmatov, bosh hosiloti, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan agronom Abduqahhor Jalilovning birgalikdagi harakatlari natijasida 1961-yilning 19–20-avgust kunlari Namangan shahrida ilk gul bayrami tashkil etildi. Unda 40 nafar gulchi qatnashdi.






Yillar o‘tishi bilan bog‘ning hududi kengaydi. Gul bayramining mazmun-mohiyati ham ortib bordi. Ushbu bayram munosabati bilan Namanganga davlat arboblari, yozuvchilar, shoirlar, san’atkorlar, sobiq Ittifoqi qahramonlari, kosmonavtlar, xorijiy davlatlarning diplomatik vakillari tashrif buyurardi. Yurtimiz mustaqillikka erishgach, bog‘ shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan atala boshlandi.

O‘zbekiston Qahramoni, xalq yozuvchisi Said Ahmad o‘z xotiralaridan birida shunday yozgan edi: «Agar go‘zallik tuyg‘usi bo‘lmaganida, odam odam bo‘lmasdi. Mana shu tuyg‘u insonni yanada mukammal qiladi». Bu purma’no so‘zlar Namangan zaminida yashab, butun hayotini go‘zallik yaratishga, odamlar qalbiga yashillik va nafosat ulashishga baxsh etgan fidoyi inson Hoshimjon Nurmatov siyratiga juda mos tushadi. Bugun Namangan deganda ko‘z oldimizga keladigan mashhur Gullar bayrami va betakror Bobur bog‘ining tarixi aynan shu insonning mehnati va shijoati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Hoshimjon Nurmatovning nomi butun bir shaharning qiyofasini o‘zgartirgan bunyodkorlik solnomasiga zarhal harflar bilan bitilgan. U qariyb o‘ttiz yil davomida Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi madaniyat va istirohat bog‘iga rahbarlik qildi. O‘sha paytlarda 14,5 gektarlik maydonni egallagan ushbu maskan nafaqat Farg‘ona vodiysida, balki butun sobiq Ittifoq miqyosida eng go‘zal va ko‘rkam madaniyat o‘choqlaridan biriga aylantirilgan edi.

Zamondoshlarining, xususan, ustoz jurnalist Rahimjon Irisovning xotirlashicha, Hoshimjon ota bog‘ga mehrini, qalb qo‘rini bergan. Istirohat bog‘idagi har bir niholning bo‘y cho‘zishi, har bir noyob daraxtning soya berishi, rang-barang gullarning nafosati otaning zahmatli mehnati, halovatidan kechishi evaziga kelgan. U kishi quruq buyruqbozlikdan yiroq rahbar





edi. Egniga korjomasini kiyib, qo‘liga belkurak olib, oddiy ishchilar bilan bir qatorda mehnat qilardi. Daraxt payvand qilishning ustasi farangi edi. O‘zining samimiy suhbatlarida tez-tez: «Bog‘ – mening taqdirim, hayotim», – deya ta’kidlashi bejiz emasdi.

Nufuzi yildan-yilga oshib, dunyo ahlining diqqatini tortayotgan Xalqaro gullar festivalining ildizlari aynan 1961-yilning 6-avgustiga borib taqaladi. Aynan shu kuni Hoshimjon Nurmatov mazkur bog‘ direktori etib tayinlanadi. Oradan hech qancha vaqt o‘tmay shaharda birinchi bor «Gul ko‘rgazmasi» tashkil etiladi. O‘sha tadbirda bor-yo‘g‘i 18 ta tashkilot va bir guruh havaskor gulchilar ishtirok etgan bo‘lsa-da, bu voqea Namangan tarixida mutlaqo yangi sahifa ochdi. Oddiy ko‘rgazma yillar davomida katta an’anaga, keyinchalik esa viloyatning dunyoga bo‘ylashadigan o‘ziga xos tashrif qog‘oziga aylandi. Gullar bayramining bugungi yuksak xalqaro darajaga chiqishida o‘tgan asrning oltmishinchi yillarida Hoshimjon ota tomonidan qo‘yilgan mustahkam tamal toshi va tinimsiz tashkilotchilik mehnatining o‘rni beqiyosdir.

Tarixiy hujjatlar, arxiv materiallari va zamondoshlarning fikrlari Hoshimjon otaning nafaqat mohir tashkilotchi, balki nihoyatda samimiy, madaniyat va san’at ahliga hurmat bilan qaraydigan keng fe’lli inson bo‘lganini ko‘rsatadi. U o‘z ishiga shunchaki kundalik vazifa deb emas, balki millat ma’naviyatini yuksaltirish, odamlarga go‘zallik, nafosat baxsh etish vositasi deb qarardi.

Garchi Hoshimjon ota Nurmatov 2010-yilning kuzida 88-yoshida bu yorug‘ olamni tark etgan bo‘lsa-da, undan qolgan yashil meros – tabarruk bog‘ va u asos solgan Gullar bayrami an’anasi hamon yashamoqda. Inson olamdan o‘tganidan keyin ham uning nomi mana shunday ezgu, savobli ishlari bilan eslanishi haqiqiy baxt va asl boqiylik belgisidir. Hoshimjon otaning ruhi Namanganning har bir bahorgi nafasida, ochilgan har bir guli tabassumida, shahar ko‘chalarini bezagan chechaklar iforida yashayveradi.

Keyingi besh yil davomida Hoshimjon ota tamal toshini qo‘ygan Gullar bayrami Xalqaro gullar festivaliga aylandi. Joiriy yilda navbatdagi Xalqaro gullar festivali ham o‘zgacha shukuh bilan o‘tdi. Festival «Ginnessning rekordlar kitobi»ga kiritildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Namanganga tashrifi asnosida an’anaviy gullar festivaliga tashrif buyurdi. Davlatimiz rahbari gul kompozitsiyalari, mavzuli maydonlar va ko‘rgazmalarni ko‘zdan kechirdi. Gulchilik bilan shug‘ullanayotgan aholi, tadbirkorlar, festival ishtirokchilari va mehmonlarni qutladi.

Jahongir TO‘XTASINOV,
o‘z muxbirimiz.

Namangan viloyati.



Bundan besh yil muqaddam Jizzax viloyatining G‘allaorol tumani tog‘li hududida sodir bo‘lgan voqea safdor Begzod Kuranovning xizmat itlariga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartirib yubordi.

SADOQAT VA MEHR-MUHABBAT TUYG‘ULARI

O‘sha kuni ichki ishlar idoralariga tog‘lar orasida tashlab ketilgan jasad haqida xabar kelib tushdi. Zudlik bilan voqea joyiga qariyb turli sohaviy xizmatlar vakillari jalb etildi. Ular orasida Jizzax shahar IIB vaqtincha saqlash hibsxonasi nazoratchisi, safdor Begzod Kuranov ham bor edi.

Xizmat iti voqea joyida bir necha soniya davomida havodan va yerdan hid olgach, kutilmaganda o‘qdek otilib ketdi. Uning ortidan yugurganlar zo‘rg‘a yetib olishardi. It jinoyatchilar qoldirgan iz bo‘ylab harakatlanib, hali uzoqlashib ketishga ulgurmagan qotillarga yetib oldi. Natijada og‘ir jinoyat «issiq izida» ochilib, unga aloqador shaxslar qo‘lga olindi.

Bugungi kunda lavhamiz qahramoni Jizzax viloyati IIB JXX Kinologiya bo‘linmasi 4-guruh kichik inspektori lavozimida faoliyat ko‘rsatmoqda. Unga «Bertta» laqabli xizmat iti biriktirilgan.

– «Bertta» zotdor it. Sadoqati, zehni va hushyorligi bilan ajralib turadi. Dastlab menga o‘rganishi oson kechmagan. Hozirda u giyohvandlik vositalarini, portlovchi moddalarni topish, antiterror va qurollangan jinoyatchilarni zararsizlantirish hamda iz-qidiruv yo‘nalishlarida xizmat qiladi. Qo‘shimcha ravishda qorovullik vazifasini ham bajaradi. Kerak bo‘lsa, xuddi tansoqchidek meni himoya qilishga tayyor, – deydi safdor Begzod Kuranov.

Shubhasizki, bunday universal tayyorgarlikka ega xizmat itlari huquq-tartibot organlari uchun alohida ahamiyatga ega. Kinologiya sohasida so‘nggi yillarda Belgiya malinosi zoti keng qo‘llanilayotgani bejiz emas. Bu zot vakillari yuqori energiyasi, tezkor harakatlanishi, kuchli hid bilish qobiliyati va buyruqlarni tez o‘zlashtirishi bilan ajralib turadi. Ular og‘ir iqlim sharoitlariga yaxshi moslashadi, uzoq vaqt charchamasdan xizmat qila oladi va yuqori darajadagi intizomga ega. Shu bois dunyoning ko‘plab mamlakatlarida politsiya, harbiy va maxsus bo‘linmalar aynan ushbu zotdan foydalanadi.

«Bertta» ham o‘zi mansub zotning afzalliklarini har qadamda – yotoq joyini ozoda tutishida, egasiga sadoqatida hamda uquvli ekanligida namoyon qiladi. O‘tgan yillar mobaynida «Bertta» bir necha jinoyatlarni ochishda muhim rol o‘ynadi. Yaqinda Mirzacho‘l tumanida sodir bo‘lgan o‘g‘irlik jinoyati ham uning yordamida ochildi.

– Jinoyat, xususan o‘g‘irlik sodir bo‘lgan holatlarda fuqarolar imkoni boricha voqea joyiga tegmasliklari kerak. Izlarni aralashtirib yubormaslik juda muhim. Darhol huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish lozim. Xizmat iti yuz minglab turli hidlarni ajrata oladi. Ayrim hollarda jinoyatchilar izni yo‘qotish uchun turli usullardan foydalanishadi. Ammo yaxshi tayyorlangan xizmat iti baribir kerakli hidni ajratib olish qobiliyatiga ega, – deydi sardor Begzod Kuranov.

Xuddi insonlar kabi xizmat itlari ham sadoqat va mehr-muhabbat tuyg‘ulariga ega ekan. Bu haqda ilgari ham eshitgan edik. Lekin Begzod Kuranovning o‘z faoliyatidan olgan hayotiy hikoyalarini tinglab, bunga ishonchimiz yanada ortdi.

Muqaddas SAPAROVA,
o‘z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

...2008-yilning yoz oylari. Jizzax shahridagi «Olmazor» mahalla fuqarolar yig‘ini binosiga yoshgina leytenant shaxdam qadamlar bilan kirib keldi. Idoraga kirib-chiqayotgan odamlar egnidagi libosi qomatiga yarashib turgan bu yigitga zimdan qiziqish va havas bilan qarab qo‘yishardi. U mahalla raisining xonasiga kirdi.

LEYTENANTNING JASORATI

– Meni shu mahallaga profilaktika inspektori etib tayinlashdi, – dedi u salom-alikdan so‘ng biroz xijolatli jilmayib.

– E, o‘zimizning Jamoliddinmisan? – dedi oqsoqol mamnun bo‘lib. – Juda yaxshi bo‘libdi. O‘zing tug‘ilib o‘sgan mahalla, hammani yaxshi bilasan. Endi birga ishlaymiz.

IIV Akademiyasini endigina tamomlagan Jamoliddinning ichki ishlar organlaridagi ilk xizmat faoliyati ana shunday boshlandi.

Tabiatan serg‘ayrat va xushmuomala bo‘lgani bois, u ko‘p o‘tmay xizmat sirlarini puxta o‘zlashtirdi, mahalla faollari, fuqarolar bilan til topishdi. Eng muhimi, hududda osoyishtalikni ta’minlash, jinoyatchilikning oldini olish borasida muayyan natijalarga erishdi. Ayniqsa, huquqbuzarlikka moyil o‘smirlar bilan manzilli ishlash va ularning ota-onalari bilan doimiy muloqotda bo‘lish yaxshi samara berdi – mahallada yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar sodir etilishiga yo‘l qo‘yilmadi.

Jamoliddin Cho‘lboyev mas’uliyatli, mehnatsevar va salohiyatli xodim sifatida tez orada rahbariyat nazariga tushdi. Shu bois 2010-yilning dekabr oyida kriminogen vaziyat og‘ir hudud – Yangiobod tumaniga, tuman IIB Huquqbuzarliklarning oldini olish guruhi tayanch punkti profilaktika inspektori lavozimiga o‘tkazildi.



O‘z vazifasiga sidqidildan yondashgan J.Cho‘lboyev qisqa fursatda el e’tibori va hurmatini qozondi. Chegara hududda joylashgan Qo‘shqand, Qo‘riq, Uchturg‘on, Savot va Chavongul qishloqlarini piyoda kezib, aholi bilan yaqindan muloqot o‘rnatdi, fuqarolarning dard-u tashvishlariga quloq tutdi. Uning sa’y-harakatlari bilan xizmat hududida qator jinoyatlarning fosh qilinishiga erishildi.

...2011-yil 12-mart. Soat taxminan 15:30. Yangiobod tumani IIB Navbatchilik qismiga «Savot» qishloq fuqarolar yig‘inidan xabar kelib tushdi. Murojaatchi mazkur qishloqda

yashovchi aka-uka Elyor va Eldor Mahkamovlar mast holda bir fuqaro bilan janjallashayotgani, tezda chora ko‘rilmasa, noxushlik yuz berishi mumkinligini aytdi.

Shundan so‘ng profilaktika inspektorlari – kapitan M.Mansurov va leytenant J.Cho‘lboyev zudlik bilan voqea joyiga yetib borishadi. Darhaqiqat, vaziyat ancha qaltis edi. Qishloq vrachlik punkti ro‘parasida shirakayf aka-ukalar fuqaro A.Boboyorovga tazyiq o‘tkazib, hayotiga tahdid solayotgan edi.

Profilaktika inspektorlari xizmat vazifalarini bajarishga kirishib, ularni tinchlantirish va qonunbuzarlikni bartaraf etishga harakat qildilar. Biroq qonuniy talab va ogohlantirishlarga parvo qilmagan Eldor vaziyatni yanada keskinlashtirdi:

– Senlar bu ishga aralashmanglar, bu ablah otamning qotili! – deya baqirdi u nafrat bilan. – Qasosimni olmaguncha qo‘ymayman!

Har bir soniya g‘animat, zudlik bilan chora ko‘rilmasa, qon to‘kilishi muqarrar edi. Leytenant J. Cho‘lboyev Eldorni, kapitan M.Mansurov esa Elyorni jilovlashga kirishdi. Shu pallada Elyor qo‘ynidan pichoq chiqarib, kapitanga hamla qildi. M.Mansurov zo‘ravonning qo‘lidagi sovuq qurolni tortib olishga urindi. Bundan battar g‘azablangan Elyor kapitanga qarata qayta-qayta pichoq sermadi. Kapitan xavfli zarbadan o‘zini chetga olishga ulgurdi, ammo o‘tkir tig‘ uning chap kaftini jarohatladi. Bu orada leytenant J.Cho‘lboyev Eldorni zararsizlantirib, uning qo‘llariga kishan urishga muvaffaq bo‘lgan edi.

Leytenant vaziyat bo‘yicha zudlik bilan navbatchilik qismiga axborot berib, qo‘shimcha kuch so‘radi. Tez orada voqea joyiga tergov-tezkor guruhi yetib keldi. Eldor Mahkamov qo‘lga olindi, jarohatlangan kapitanga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatildi. Bu paytda Jamoliddin Cho‘lboyev voqea joyidan qochishga uringan Elyor Mahkamovning izidan quvib borardi.

Nihoyat, u jinoyatchiga yetib oldi. O‘rtada olishuv boshlandi. Jamoliddinning jismoniy tayyorgarligi pand bermadi: maxsus kurash usullarini qo‘llab, zo‘ravonni yerga yuztuban yiqitdi. Kishanlarini birinchi huquqbuzarga ishlatgani sababli, u vaziyatdan chiqish uchun xizmat kamari bilan jinoyatchining qo‘llarini bog‘lashga qaror qildi. Ana shunday qaltis bir paytda, Elyor kutilmaganda qo‘ynidan pichog‘ini chiqarib, leytenantning son qismiga kuchli zarba berdi va og‘ir jarohat yetkazdi.

Mudhish jinoyatni sodir etib, voqea joyidan yashiringan zo‘ravon ko‘p o‘tmay qo‘lga olindi. Ammo ko‘p qon yo‘qotish natijasida shifoxonaga yotqizilgan leytenantning ahvoli nihoyatda og‘ir edi. U bir hafta davomida hayot uchun mardonavor kurashdi. Hamkasblari, oila a’zolari va yaqinlari Jamoliddinning yana safga qaytishidan umidvor bo‘lib, tun-u kun uning yonida bo‘ldilar. Afsuski, ko‘rsatilgan tibbiy muolajalarga qaramay, leytenant Jamoliddin Cho‘lboyev 19-mart kuni dunyodan ko‘z yumdi.

Jamoliddin Cho‘lboyevning o‘z burchiga sadoqati va ko‘rsatgan qahramonligi davlatimiz tomonidan yuksak baholandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 23-oktabrdagi farmoniga binoan, u vafotidan so‘ng «Jasorat» medali bilan mukofotlandi.

Qahramonning yuksak davlat mukofotiga loyiq ko‘rilishi uning oila a’zolari, yaqinlari va safdoshlari qalbida faxr-iftixor tuyg‘ularini uyg‘otdi. Jamoliddinning xotirasi hamon qalblarda barhayot uning ko‘rsatgan jasorati aslo unutilmaydi.

Quvonch QODIROV,
IIV Akademiyasi dotsenti,
podpolkovnik.

Teatr va kino san’atiga fidokorona xizmat qilib, milliy madaniyatimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan O‘zbekiston xalq artisti, «Madaniyat va san’at fidokori» ko‘krak nishoni sohibasi, O‘zbek milliy akademik drama teatri aktrisasi Ra’no Yarasheva bilan samimiy suhbatlashdik. San’atkor ijod yo‘lida uchragan sinovlar, hayot tajribalari, shuningdek, ichki ishlar organlari xodimining onasi sifatida ushbu mas’uliyatli va sharafli kasb egalari haqida quyidagilarni gapirib berdi.



HAYOT VA IJOD CHORRAHALARIDA

QISMATIMNI BELGILAGAN «QISMAT»

Men 1961-yili Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on shahrida tug‘ilganman. To‘rt o‘g‘ildan keyin dunyoga kelganim uchun oilamizdagilar meni yer-u ko‘kka ishonishmasdi. Ikki yoshimda yana bir qiz farzand dunyoga kelgan. Onamning hikoya qilishicha, o‘sha paytlarda juda qizg‘anchiq va injiq bo‘lib qolgan ekanman. Hatto bir kuni akam Rayhon singlimni erkalayotganida, uning yuzini tirnab ham olgan ekanman. Shundan so‘ng rahmatli buvim meni o‘zi bilan olib ketgan. Sakkiz yoshimgacha buvim va bobomning erka nevarasi bo‘lib ulg‘aydim. Ularning mehr-muhabbati, tarbiyasi va duolari butun umrim davomida menga kuch va tayanch bo‘lib keldi.

To‘rt akadan keyin o‘sishning ta’siri bo‘lsa kerak, bolaligimda qizlarga xos o‘yinlardan ko‘ra akalarim bilan to‘p tepish, velosiped haydashni yaxshi ko‘rardim. Kitobga ham mehrim baland edi. Ayniqsa, ona tili va adabiyot fanini juda yaxshi ko‘rardim. Turli tadbirlar va jamoat ishlarida faol qatnashardim, baholarim hamisha a’lo bo‘lardi.

Maktabda o‘qib yurgan kezlarimda televideniye orqali «Qismat» filmini tomosha qildim. Unda bosh qahramonlar rollarini Gulchehra Sa’dullayeva va Lutfulla Sa’dullayev yuksak mahorat bilan ijro etgan edilar. Shundan keyin o‘zimni sahnada tasavvur qiladigan, qahramonlar taqdiri bilan yashaydigan bo‘ldim. Maktabni bitirish arafasida «Men tanlagan kasb» mavzusida insho yozdik. Men hech ikkilanmay: «Kelajakda yo teatr aktrisasi, yo jurnalist bo‘laman», deb yozdim. Inshomni o‘qigan o‘qituvchim ham, sinfdoshlarim ham hayratda qolishdi. Chunki o‘sha davrda oddiy qishloq qizining aktrisa bo‘lishni orzu qilishi ko‘pchilik uchun odatiy hol emasdi. Shu bois dastlab ota-onam ham, akalarim ham bu qarorimni qo‘llab-quvvatlamadi.

DUNYOQARASHLARIMIZ TO‘G‘RI KELMADI

O‘g‘limning bo‘lajak otasi meni chin dildan yaxshi ko‘rib qolgan. U: «Hamma narsaga ruxsat beraman,

o‘qitaman, hatto Parijga ham olib boraman», deb va’da bergan. O‘sha paytda men endigina 18 yoshga kirgan qiz edim. Uning va’dalariga ishonib, turmush qurishga rozi bo‘lganman.

Ammo hayotiimiz men kutgandek kechmadi. Turmush o‘rtog‘imning rashki sababli ko‘p ozor chekdim. Tan olaman, yoshlik qilib mening ham o‘tkir gaplarim bo‘lgan. Bugun ortga nazar tashlasam, o‘z xatolarimni ham anglayman.

Vaqt o‘tib angladimki, hayotga qarashlarimiz mutlaqo boshqacha ekan. U hamma narsani moddiylik bilan baholar, men esa ma’naviyat, adabiyot, she’riyat va san’at bilan yashardim. Bir-birini tushunmaydigan ikki insonning birga yashashi qiyin ekan. Oqibatda, yo‘llarimiz ayrildi.

Ota uyimizda ham orzuim katta bahslarga sabab bo‘lgan. Akalarimning ayrimlari san’at institutiga o‘qishga kirishimga keskin qarshi chiqishdi. Faqat Toshkentda yashaydigan akam meni tushunib, qo‘llab-quvvatladi. Dadam esa vazminlik bilan: «Senlar otami yoki menmi? O‘qishga kirsin. Agar kira olmasa ham, bir umr armon qilib o‘tmaydi», – deb, Toshkentga borib hujjat topshirishimga ruxsat berdilar.

IMTIHONDAN E’TIROFGACHA

Ilk bor Toshkent davlat san’at institutiga hujjat topshirganimda imtihondan o‘ta olmaganman. Bu men uchun juda og‘ir sinov bo‘lgan. Chunki dadamdan arang ruxsat olib, Toshkentga kelgandim. Agar o‘qishga kira olmaganimni aytsam, keyinchalik meni yana o‘qishga yubormasliklari mumkin edi. Shu o‘ylar meni qattiq qiynardi.

«Bir yilni bekor o‘tkazmay», – deb televideniyega ish so‘rab bordim. Meni ishga olishmasligidan qo‘rqib: «Turmushdan ajrab, otamni arang ko‘ndirib Toshkentga o‘qishga keldim. Agar o‘qishga kira olmaganimni dadam bilsa, meni qayta bu yerga yubormaydi yoki turmushga uzatib yuboradi», – dedim. Shu tariqa ish boshladim va bir yildan so‘ng san’at institutining sirtqi bo‘limiga o‘qishga qabul qilindim.

Talabalik yillarimdagi eng unutilmas voqealardan biri — ikkinchi kursda o‘qiyotganimda xotin-qizlarning sevimli jurnali – «Saodat»ning muqovasida eng namunali talaba sifatida suratimning chop etilganidir. Bu men uchun katta e’tirof, katta baxt va yanada ko‘proq mehnat qilishga undagan unutilmas rag‘bat bo‘lgan.

TEATR — IKKINCHI UYIM

Telestudiyada liboschi yordamchisi bo‘lib ishlardim. Bir kuni suratga olish jarayoniga O‘zbekiston xalq artisti Nabi Rahimov keldilar. Suhbat asnosida mening san’at institutida tahsil olayotganim va teatrga bo‘lgan qiziqishim haqida bilib qoldilar. Oradan ko‘p o‘tmay, o‘zlari meni teatr rahbariyati huzuriga olib kirdilar. Shu tariqa grimyor yordamchisi sifatida ishga qabul qilindim. Uzoq vaqt sahna ortida mehnat qildim. Mashhur aktrisa va aktyorlarning ijrosini zavq bilan kuzatardim, ulardan o‘rganishga harakat qilardim. Aynan o‘sha yillar men uchun haqiqiy mahorat maktabi bo‘ldi.

Bugungi kunga qadar shu qutlug‘ dargohda faoliyat yuritib kelmoqdaman. Bu yillar davomida teatr sahnasida ham, kino ekranlarida ham katta-kichik ko‘plab obrazlarni yaratdim. Lekin baribir aktyor uchun aynan uning imkoniyatlari va ichki kechinmalari inobatga olinib yozilgan asar eng bebaho tuhfadir. Men ham ana shunday baxtga musharraf bo‘lganman. 2007-yilda Zulxumor Soliyeva qalamiga mansub, Munavvar Abdullayeva sahnalashtirgan «Bevalar» spektaklida bosh qahramon obrazini ijro etdim. Bu rol ijodiy faoliyatimda alohida o‘rin tutadi.

TAQDIR UCHRASHTIRGAN INSON

Talabalik yillarim edi. Bir kuni rejissor Said Muxtorov meni o‘zi bilan to‘yda boshlovchilik qilishga taklif qildi. Men: «Umrimda boshlovchilik qilmaganman, eplolmayman», deb ancha qarshilik qildim. Ammo u: «Endi o‘rganasan», deb meni ko‘ndirdi. Shu tariqa to‘y xizmatlariga ham chiqa boshladik.

O‘sha paytlarda ham bunday faoliyat bilan shug‘ullanish uchun tegishli hujjatlar talab qilinar ekan. Navbatdagi to‘ylardan birida guruhimizni ichki ishlar organi xodimlari tekshiruv uchun olib ketishdi.

Meni ham alohida xonaga kiritib, so‘roq



qilishdi. Bo‘y-basti kelishgan, salobatli bir xodim hujjatlarimni ko‘rib: «Bir oilani gullatadigan tuppa-tuzuk qiz ekansan. Nima qilib yuribsan to‘yma-to‘y?» – dedi. Men esa o‘zimni oqlashga harakat qilib, institutda o‘qishimni aytdim. U esa: «O‘qishingga ham, uyingga ham xat yuboramiz», – deb meni ancha qo‘rqitdi.

Shunda men hayotim haqida bor gapni aytib berdim. Toshkentga o‘qish uchun qanday mashaqqatlar bilan kelganimni, turmushim buzilib, barcha og‘irliklarni bir o‘zim yengishga harakat qilayotganimni so‘zlab berdim. Ana shu suhbat tufayli taqdirimda muhim burilish yuz berdi. Keyinchalik o‘sha inson bilan yana uchrashdik, bir-birimizni yaqindan tanidik va oila qurdik.

Turmush o‘rtog‘im ichki ishlar organlarida sidqidildan xizmat qilgan, mas’uliyatli va oilaparvar inson edi. U ijodimni hamisha qo‘llab-quvvatladi. Men esa to‘ylarga chiqishni to‘xtatib, butun e’tiborimni teatr va kinoga qaratdim. Afsuski, turmush o‘rtog‘im 56 yoshida vafot etdi. Bu yo‘qotish men uchun hayotimdagi eng og‘ir sinovlardan biri bo‘ldi.

Ikki farzandni voyaga yetkazdik. O‘g‘lim Komiljon ichki ishlar organlari tizimida xizmat qilishni tanladi. Bu men uchun alohida faxr. Qizim Madina Mumtoz esa mening izimdan borib, san’at sohasini tanladi. Bir muddat ijod qildi. Keyin oila qurgach, onalik va oila mas’uliyatini ustun qo‘yib, san’atdan chetlashdi.

SAN’ATDA IQTIDOR MUHIM

Ba’zi odamlar: «San’at sohasida o‘qimagan, mutaxassis bo‘lmagan insonlarning sahnaga chiqishi g‘ashimni keltiradi», – degan fikrni aytishadi. Men esa bu masalaga boshqacha qarayman. Agar inson o‘z roliga sidqidildan yondashib, obrazni ishonarli va mahorat bilan ijro etgan bo‘lsa, uning diplomi bor-yo‘qligiga emas, iqtidoriga va mehnatiga baho berish kerak. Shunday ijrochini chin dildan olqishlayman, hatto bag‘rimga bosgim keladi.

Xuddi shunday, endigina san’at yo‘liga qadam qo‘ygan xonandaning ovozida samimiyat, qalbida dard va iste’dodni ko‘rsam, uni tanqid qilishga shoshilmayman. Aksincha, qo‘limdan kelganicha rag‘batlantirishga, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishga harakat qilaman. Chunki har bir san’atkor ham bir vaqtlar izlanishdan, o‘rganishdan boshlagan.

SHE’RLARIM — KO‘NGLIMNING SADOSI

Badiiy ijodga qiziqishim juda erta boshlangan. Hali 5-sinfda o‘qib yurgan kezlarimdayoq ilk she’riy qoralamalarim viloyat gazetasida chop etilgan. Keyinchalik respublika nashrlarida

ham chiqa boshlagan. 1995-yilda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zoligiga qabul qilindim. Shu kunga qadar «Samarqand sog‘inchi», «Seni tashlab ketolmayman», «Hajr», «Yolg‘iz tashlama, Alloh» nomli she’riy to‘plamlarim, shuningdek, «Ilohiy ishq qissasi» nasriy asarim nashr etilgan. Shunga qaramay, o‘zimni yetuk shoira, deb hisoblamayman. Men she’rni o‘zim uchun yozaman. Ko‘nglimdan nimalar kechsa, o‘sha tuyg‘ularni qog‘ozga tushirishga harakat qilaman. Vazn yoki turoqdan ko‘ra, men uchun she’rdagi hissiyot va samimiyat muhimroq. She’rlarimni «to‘lganimda to‘kilganlarim» deb atayman. Chunki ularning aksariyatida iztiroblarim, sog‘inchlarim, xullas ichki kechinmalarim mujassam.

E’TIROF – IJODKOR UCHUN KATTA RAG‘BAT

Yaqinda davlatimiz rahbari bilan bo‘lgan muloqotdan keyin biz san’atkorlar bir-birimizga: «Bunaqasi hali hech qachon bo‘lmagan», – deb qayta-qayta aytdik. Aslida, men bu uchrashuvda so‘zga chiqishni rejalashtirmagan edim. Ammo ijod ahliga ko‘rsatilayotgan yuksak e’tibor va g‘amxo‘rlik uchun minnatdorlik bildirmay tura olmadim. Chunki shunday davrlar ham bo‘lganki, butun boshli teatr jamoasiga birorta ham mukofot yoki faxriy unvon berilmagan. Bugun esa ijodkorlarga nafaqat mukofotlar berilyapti, balki samarali mehnat qilishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu har bir san’atkor uchun katta rag‘batdir.

Bunday e’tibor ijodkor zimmasiga yanada katta mas’uliyat yuklaydi. Endi biz faqat e’tirofdan quvonibgina qolmasdan, yeng shimarib, xalqimiz ishonchini yangi ijod namunalari bilan oqlashimiz kerak. San’at va madaniyatimiz yurtimizning ma’naviy qiyofasini dunyoga tanitishda, xalqlar o‘rtasida do‘stlik va hamjihatlikni mustahkamlashda bundan keyin ham xizmat qilishda davom etsin.

TEATRNING TARBIYAVIY KUCHI

Men teatr va kinoning jamiyat tarbiyasidagi o‘rni beqiyos, deb hisoblayman. Milliy teatrimizda huquq-tartibot, Vatan tinchligi va inson taqdiri bilan bog‘liq ko‘plab spektakllar sahnalashtirilgan. Jumladan, «Ofitserlar» spektakli ham ana shunday asarlardan. Men unda rol ijro etmagan bo‘lsam-da, asarning tomoshabinga qanday ta’sir ko‘rsatishini yaxshi bilaman.

Bunday spektakllar huquqbuzarliklarning oldini olishga, yoshlarda ichki ishlar organlari xodimlarining mashaqqatli va sharafli xizmatiga hurmat uyg‘otishga xizmat qiladi. Ayniqsa, kasb tanlash ostonasida turgan yoshlar bu kabi sahna asarlari orqali nafaqat muayyan kasb haqida tasavvurga ega bo‘ladi, balki jamiyat tinchligi va osoyishtaligini asrash har bir insonning fuqarolik burchi ekanini ham anglaydi.

Menimcha, teatrning eng katta kuchi uning inson qalbiga ta’sir qila olishidadir. Agar biror tomoshabin spektakldan keyin hayotga boshqacha nigoh bilan qarasa, loqayd bo‘lmay yashashga intila boshlasa, demak, san’at o‘zining eng muhim vazifasini bajargan bo‘ladi.

ENG OLIY UNVON

Agar ichki ishlar organlari xodimlari hayotiga bag‘ishlangan film yoki spektaklda ishtirok etsam, hozirgi yoshimda albatta, ichki ishlar xodimining onasi obrazini ijro etishni istar edim. Chunki hayotda ham men aynan shu hisni boshdan kechiryapman – ichki ishlar xodimining onasiman. Farzandi bilan faxrlanadigan, uning xizmatiga dildan quvonadigan ona obrazi ko‘nglimga juda yaqin.

O‘g‘lim Komiljon Yarashev ham shu soha vakili bo‘lib, Olmazor tumanida uzoq yillar profilaktika inspektori sifatida xizmat qildi, hozirda esa jinoyat qidiruv bo‘limida faoliyat yuritib kelmoqda.

Ichki ishlar organlari tizimida xizmat qilish oson emas. Ertalab uydan chiqqan xodimning qachon qaytishi aniq emas. Bu fidoyilikni men o‘g‘limning xizmat faoliyati orqali ham chuqur his etganman. Shu bois bu sohada oilaviy hayot ham o‘ziga xos sinovlar bilan kechadi. Ammo shunga qaramay, ularning xizmati jamiyat uchun g‘oyat muhim va qadrlidir.

Men uchun eng katta baxt – farzandlarimning to‘g‘ri yo‘ldan borishi. Ular haqida «Komiljonning onasi», «Madina Mumtozning onasi» deb aytilsa, qalbim faxrga to‘ladi. Bu – ona uchun eng oliy unvon.

Adolat FAYZIYEVA
yozib oldi.



HAQIQAT SUV TAGIDA YOTMAS...

«Haromdan topilgan davlat qorday erib ketar», – deydi dono xalqimiz. Darhaqiqat, halol mehnat bilan topilgan bir burda nonning qadri qilvirlik tufayli qo‘lga kiritilgan ming tanga boylikdan ulug‘. Ammo shunday insonlar borki, ular mashaqqatli mehnatni emas, oson va aldovga qurilgan yo‘lni tanlaydi. Ular o‘z manfaati uchun insonlarning ishonchiga kirib, birovning haqini yeyishdan toymaydi. Lekin hayotning o‘z qonuni bor: yolg‘onning umri qisqa, haqiqat esa baribir yuzaga chiqadi. Quyidagi voqea ham ana shu qonunning yana bir isbotidir.

Qumqo‘rg‘on tumani «Boymoqli» mahallasida yashovchi Tolib Sa’dullaev (ism-sharifi o‘zgartirildi) ham halol mehnat qilib daromad topish o‘rniga ayrim odamlarning sodda, ishonuvchanligidan foydalanib, oson boyish yo‘lini tutdi. U avval o‘zicha puxta reja tuzdi. So‘ngra ushbu rejaga muvofiq, mahalladoshi Xoliq Abdunabiyev bilan u yetishtirgan yeryong‘oq hosilini sotib olishga kelishdi. Savdo 81 million so‘mga bitdi. Tolib ikki oy ichida pulni to‘liq to‘lashni va’da qildi. Xoliq qo‘shnisining lafziga ishondi. Yeryong‘oqlar mashinaga yuklanib, qo‘shni viloyatga olib ketildi.

Oradan kunlar, haftalar, oylar o‘tdi. Yeryong‘oq sotildi, ammo va’da bajarilmadi. Tolib pullarni egasiga qaytarmasdan, shaxsiy ehtiyojlari yo‘lida sarflab yubordi. «Odamning ko‘zi to‘ymas» deganlaridek, osongina qo‘liga kirgan mablag‘ uning nafsini yana hakalak ottirdi. Endi ko‘ngli



tag‘in mo‘may o‘lja tusab qoldi. Ko‘p o‘tmay uning navbatdagi «o‘ljasi» «Bobotog‘» mahallasida yashovchi Hasan Davlatov bo‘ldi. Bu safar ham yeryong‘oq savdosini pishitdi. Tomonlar 31 million 600 ming so‘mga bor baraka qilishdi. Yeryong‘oqlar olib ketildi. Nasiya puldan esa yana darak yo‘q...

Firibgarlik bobida bir marta omadi chopgan odam o‘zini ayyor deb o‘ylaydi. Ikkinchi marta ham aldovi ish bersa, o‘zini ustasi farang deb his qiladi. Tolib ham xuddi shunday kayfiyatga berildi. Yeryong‘oq mavsumi yakunlangach, yangi nayrang usulini o‘ylab topdi.

Bu gal uning hiyla tuzog‘iga Jarqo‘rg‘on tumanining «Xalqobod» mahallasida yashovchi Arslon Madiyev ilindi. Tolib uning yoqilg‘i mahsulotlari sotiladigan shoxobchasidan 1 tonna-yu 750 litr dizel yoqilg‘isini oldi. Kelishilgan 19 million 250 ming so‘mni bir hafta ichida yetkazishini aytib, juftakni rostladi. Yoqilg‘ini sotib topgan pulini esa yana shaxsiy ehtiyojlariga sarfladi.

«O‘rgangan ko‘ngil o‘rtansa qo‘ymas» deganlaridek, Tolib Sa’dullayev shu tariqa yana bir necha kishini aldov yo‘li bilan chuv tushirdi. Biroq «Ko‘za kunda emas, kunida sinadi» deganlari ham bor gap. Oxir-oqibat undan jabr ko‘rgan fuqarolarning sabr kosasi to‘ldi. Ular huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishdi.

Viloyat IIB xodimlari tomonidan holat atroflicha o‘rganildi. Dastlabki tergov harakatlari davomida Tolib Sa’dullaevning firibgarlik yo‘li bilan amalga oshirgan harakatlari o‘z isbotini topdi. Shu tariqa birovning ishonchiga xiyonat qilish orqali qurilgan «biznes» quladi. Nayrangbozning qonun oldida javob berish vaqti keldi.

Birovning haqiga xiyonat qilish – bu shunchaki qonunbuzarlik emas, avvalo insoniylikka zid qilmishdir. Chunki firibgarlik natijasida nafaqat mablag‘ yo‘qotiladi, balki odamlar o‘rtasidagi muqaddas qadriyatlardan sanalgan ishonch ham yemiriladi. Bir insonning halol mehnati, chekkan zaxmati orqasidan oilasi uchun yig‘gan mablag‘ini boshqa birov o‘zlashtirib yuborsa, bu qanday nohaqlik?

Tolib Sa’dullaev ham oson boyish ilinjida o‘zini aqlli, boshqalarni esa sodda deb o‘yladi. Ammo u bir haqiqatni unutdi: har qanday yolg‘onning ortida haqiqat, har qanday firibgarlikning ortida esa javobgarlik turadi. Bugun qo‘lga kiritilgan harom daromad ertaga insonning obro‘si, sha’ni va erkinligi evaziga to‘lanishi mumkin bo‘lgan og‘ir qarzga aylanadi.

Bu voqea har birimiz uchun saboq bo‘lishi lozim. Chunki jamiyatning mustahkamligi ham, odamlar o‘rtasidagi hamjihatlik ham o‘zaro ishonch va halollikka tayanadi. Agar inson nafsiga qul bo‘lsa, u nafaqat o‘z taqdirini abgor qiladi, balki atrofidagi odamlarga ham tashvish keltiradi.

Sodiq NARIMONOV,
Surxondaryo viloyati IIB huzuridagi
Tergov boshqarmasi O‘MIB tergovchisi,
podpolkovnik.
Feruza RAHMONQULOVA,
o‘z muxbirimiz.

ISSIQ URISHIDAN SAQLANING



Yoz faslida havo haroratining keskin oshishi inson salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, yuqori harorat va namlik sharoitida uzoq vaqt qolish natijasida organizm qizib ketadi va issiq urish holati yuzaga kelishi mumkin. Issiq urishi o'z vaqtida aniqlanmasa va zarur yordam ko'rsatilmasa, hayot uchun xavfli asoratlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun issiq urishining oldini olish, uning belgilari va birinchi tibbiy yordam choralarini bilish har bir inson uchun muhim ahamiyatga ega.

1 ISSIQ URISHI XAVFI YUQORI BO'LGAN SHAXSLAR

- 5 yoshgacha bo'lgan bolalar;
- 65 yoshdan katta insonlar;
- yurak-qon-tomir kasalliklari bilan og'riganlar;
- semizlikka chalingan shaxslar;
- qandli diabet bilan og'rigan bemorlar;
- homilador ayollar;
- ochiq havoda mehnat qiluvchilar;
- harbiy xizmatchilar va sportchilar.

2 ASOSIY BELGILARI

- Quyidagi belgilar kuzatilishi mumkin:
- tana haroratining yuqori ko'tarilishi;
- kuchli bosh og'rig'i;
- bosh aylanishi;
- kuchsizlik va holsizlik;
- ko'ngil aynishi va qusish;
- yurak urishining tezlashishi;
- nafas olishning tezlashishi;
- terining qizarishi va qurishi;
- hushdan ketish yoki ongning buzilishi.

3 AGAR INSONDA ISSIQ URISHI BELGILARI KUZATILSA

- uni zudlik bilan soya yoki salqin joyga olib o'tish;
- tor kiyimlarini bo'shatish;
- tanaga sovuq nam sochiq qo'yish yoki suv bilan sovitish;
- hushi joyida bo'lsa, oz-ozdan salqin suv ichirish;
- ventilyator yoki konditsioner yordamida sovitish. Agar hushidan ketgan bo'lsa yoki ahvoli og'irlashsa, tez tibbiy yordam chaqirish kerak.

4 OLDINI OLISH

- Issiq kunlarda quyidagi tavsiyalarga amal qilish lozim: soat 11:00 dan 17:00 gacha to'g'ridan-to'g'ri quyosh ostida uzoq vaqt qolmaslik;
- kun davomida yetarli miqdorda suv ichish (kamida 2–2,5 litr, zaruratga qarab ko'proq);
- chanqamasdan turib ham suv ichib turish;
- yengil, och rangli va tabiiy matodan tikilgan kiyim kiyish;
- bosh kiyim kiyish va quyoshdan himoyalovchi ko'zoynak taqish;
- og'ir jismoniy mehnatni ertalab yoki kechqurun bajarish;
- spirtli ichimliklar va shakarli gazli ichimliklarni cheklash;
- mevalar va sabzavotlarni ko'proq iste'mol qilish;
- yopiq avtomobilda bolalar yoki keksalarni qoldirmaslik;

Nima qilish mumkin emas?

- *Juda muzdek suvga birdaniga tushirish tavsiya etilmaydi.*
- *Alkogolli ichimlik berish mumkin emas.*
- *Tibbiy yordam chaqirishni kechiktirmaslik lozim.*

Muzaffar HASANOV,
IIV Markaziy poliklinikasi bo'linma boshlig'i, mayor.



XODIMNING O‘ZI OG‘UFURUSH BO‘LSA...

Huquqni muhofaza qilish organlari tizimida bunday holat psixologik deformatsiya (kasbiy buzilish) hisoblanib, tarbiyaviy ishlar bilan bog‘liq bo‘shliq mavjudligini ko‘rsatadi. Hayot haqiqati shundayki, istaymizmi-yo‘qmi, lekin guruchning orasida kurmak ham uchrab turadi.

Afsuski, ba’zi xodimlar xizmat mavqeyidan o‘zlarining g‘arazli maqsadlari yo‘lida ham foydalanishi mumkin. Bunga ko‘pincha moddiy manfaatdorlik, yanayam aniqrog‘i hoyu havasga berilishi, nafsini tiya olmasligi sabab bo‘ladi. Qarabsizki, vaqti soati kelib, qilmishi oshkor bo‘lgach, javobgarlikka tortilishidan tashqari, xizmat vaqtida orttirgan obro‘sidan ayriladi, qo‘ni-qo‘shnilari, yaqinlari oldida boshi egiladi.

Ayrim xorijiy davlatlar politsiya xodimlarining giyohvandlik vositalari savdosiga aralashib qolganligini tahlil etadigan bo‘lsam, xizmat vazifasini bajarayotgan politsiya xodimlari 3 ta holatda giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlarga aralashmoqda. Birinchisi, ma’lumot sotish. Ikkinchisi, rahnamolik qilish (o‘z hududlarida narkotiklarni sotishlariga ko‘z yumishadi yoki giyohfurushlarga mayda muammolarini hal etishlarida ko‘maklashishadi. Uchinchisi, logistika xizmati (xodim o‘z vakolati va transportidan foydalanib giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki prekursorlarni tashishga ko‘maklashadi.

Xodimlar orasida bunday salbiy holatlar va zararli odatlarning oldini olishda eng avvalo uning oila muhiti muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, uning xizmat xonasida ota-onasi, turmush o‘rtog‘i, farzandlari va yaqinlari bilan tushgan fotosuratlar, erishgan yutuqlari va mukofotlari aks etgan mo‘jazgina burchak yaratish ham katta ahamiyatga egaligi umume’tirof etilgan tavsiyalardan sanaladi.

Ularni ham ruhan, ham ma’nan tarbiyalash, zamon talablaridan kelib chiqib, o‘quv mashg‘ulotlari chog‘ida bu boradagi maxsus bilim va ko‘nikmalarni singdirib borish kerak. Shuningdek, kundalik hayotlarida, xizmat faoliyatlarida zararli odatlar va moddiy qaramlikning oqibatlari to‘g‘risida eslatmalar qilish juda foydali deb o‘ylayman.

Jahon tajribasidan ma’lumki, huquqni muhofaza qilish organlari shaxsiy tarkibi o‘rtasida ma’nan yetuk va barkamol xodim birinchi navbatda ichgan qasamyodiga sodiq bo‘lib qolishi va unga ishonadigan el-u yurtni jinoiy xurujlardan himoya qilishi lozimligi targ‘ib qilinadi. Menimcha, IIVning har bir sohaviy xizmatida, tarkibiy va hududiy tuzilmalaridagi bannerlar va devoriy oynalarda ana shu g‘oya aks etishi kerak.

Akmaljon AHMADJONOV,
IIV JXD HPX Yoshlar masalalari bo‘yicha bo‘limi katta inspektori, mayor, falsafa fanlari doktori.

Ko‘pchiligimiz «sherif» so‘zini eshitganimizda, Hollywood filmlaridagi yulduzli nishon taqqan politsiya qahramoni ko‘z oldimizga keladi. Amalda esa bu lavozim AQSh huquq-tartibot tizimining o‘ziga xos, murakkab va mustaqil institutidir. Ushbu maqolada sherif kimligi, uning vakolatlari, saylanish tartibi haqida ma’lumot berishga harakat qilamiz.

AQSH SHERIFLARI



Saylov uchastkalarida amerikalik saylovchilar nafaqat Prezident yoki senatorlarni, balki mahalliy darajadagi mansabdor shaxslarni ham saylashadi. Ovoz berish byulletenida qayd etiladigan lavozimlardan biri bu okrug sherifidir.

«Sheriff» so‘zi qadimiy inglizcha «shire-reeve» birikmasidan kelib chiqqan bo‘lib, «shire» — okrug, «reeve» — qo‘riqchi yoki boshqaruvchi degan ma’noni anglatadi. Bu atama qadimgi Angliyadagi Norman istilosidan (1066-yil) avval ham mavjud bo‘lib, o‘rta asrlarda sherif okrugning bosh qonun ijrochisi, soliq yig‘uvchisi va sud raisi vazifalarini bajargan.

Amerikada mustamlakachilik davrida qadimgi ingliz modeli asosida shakllangan bu lavozim yangi qit’ada go‘yoki ikkinchi nafasini oldi. Mustamlakachilar Yevropada tanazzulga yuz tutayotgan mazkur huquq-tartibot institutini qayta tiklab, uni saylov asosida shakllantirish an’anasini joriy etdilar. Bugungi kunda AQShning Alyaska, Gavayi va Konnektikut shtatlaridan tashqari barcha shtatlarda mahalliy sheriflar mavjud. Milliy sheriflar assotsiatsiyasi ma’lumotlariga ko‘ra, AQShda 3081 ta sherif idorasi faoliyat yuritadi.

Aksariyat shtatlarda sherif okrug aholisi tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov orqali 4 yil muddatga saylanadi. Shu bilan birga, AQShda qirqqa yaqin shtatda sherif saylovi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan. Nomzodlarga qo‘yiladigan talablar shtatlarga qarab farq qiladi, biroq umumiy holda AQSh fuqaroligi, okrugda yashashi va saylovchilar ro‘yxatida bo‘lishi talab etiladi. Qiziqarli jihati shundaki, ayrim shtatlarda sheriflikka nomzodlar uchun huquqni muhofaza qilish sohasida tajribaga ega bo‘lishi shart emas —

saylovchilar biznes yoki ko‘chmas mulk sohasi vakillarini ham sherif etib saylashi mumkin.

Sherif okrug bo‘ylab huquq-tartibotni ta’minlash bo‘yicha keng vakolatlarga ega. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– Butun okrug hududida, shu jumladan shahar tarkibiga kirmaydigan (unincorporated) joylarda ham qonun ustuvorligini ta’minlaydi. Agar biror kichik shaharchada o‘z politsiya bo‘limi mavjud bo‘lmasa, qonunchilikni sherif idorasi himoya qiladi.

– Okrug qamoqxonasi (county jail) faoliyati uchun mas’ul bo‘lib, mahbuslarni saqlash, sud jarayonlariga kuzatib borish va ozodlikka chiqarish kabi vazifalarni bajaradi.



Sud binolari xavfsizligini ta’minlaydi, sudyalar va hakamlar hay’atini qo‘riqlaydi.

Sud chaqiruv qog‘ozlari, orderlar, sud qarorlari kabi hujjatlarni fuqarolarga yetkazish ham sherif zimmasida.

Ayrim shtatlarda sherif okrug koroneri vazifasini ham bajarib, noma’lum yoki shubhali o‘lim sabablarini aniqlaydi.

Sherif idorasi okrug hududidagi barcha huquq-tartibot idoralariga, jumladan shahar politsiyasiga ham zarur hollarda ko‘maklashadi.


Sherif idorasida «undersheriff» (bosh sherif yordamchisi), «chief deputy» (bosh muovin) va «deputy sheriff» (sherif muovinlari) kabi mansabdor shaxslar xizmat qiladi. Sherifga bevosita bo‘ysunuvchi bu xodimlar uning topshiriqlariga muvofiq qonuniylikni ta’minlashadi.

Sherifning o‘tmishdan meros bo‘lib kelayotgan alohida vakolatlaridan biri «posse comitatus» – chaqirish huquqidir. Bu lotincha atama «okrug kuchi» degan ma’noni anglatib, favqulodda holatlarda sherifning okrugdagi mehnatga layoqatli fuqarolarni vaqtinchalik o‘z yordamchisi sifatida safarbar etish huquqini ifodalaydi.

Bu institut O‘rta asr Angliyasidan kelib chiqqan bo‘lib, Amerikada mustamlakachilik davrida keng qo‘llanilgan va bugungi kunda ham bir qator shtatlar qonunchiligida saqlanib qolgan. Garchi hozirgi davrda bu huquq deyarli qo‘llanilmasa-da, sherifning favqulodda vaziyatlarda fuqarolarni safarbar etish borasidagi tarixiy rolini eslatib turadi.

AQShda sherif instituti mahalliy saylov demokratiyasining huquqni muhofaza qilish sohasidagi yorqin ifodasidir. O‘z saylovchilari oldida bevosita hisob beradigan, keng vakolatlarga ega bu mansabdor shaxs Amerika jamiyatida qonun bilan mahalliy aholi o‘rtasidagi muhim ko‘prik vazifasini bajaradi.

Mirabbos MIRTOHIROV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi.



QODIRIYNI KO‘RGANMAN-U…

Men Abdulla Qodiriyni ko‘rganman-u, ko‘rdim deb aytolmayman. Bunga Hakim Nazir aybdor.

Marg’ilon bozorining beshik rastasida shinam choyxona bo‘lar edi. Domlam Obidjon aka bilan bitta non, bir hovuch mayiz olib, endi choy chaqirgan edik, domla:

– Ana, u yoqqa qara… – deb qoldilar shivirlab, – Abdulla Qodiriy o‘ltiribdi.



Men qaradim: ikkita soddagina, do‘ppili kishi shaxmat surishyapti. Shu o‘yinga juda berilgan paytim, gazetada chiqqan chigil masalalarni yechib, grossmeysterlarning o‘yinlarini tahlil qilardim. Haligilarning taxtasiga qarasam – juda qiziq vaziyat!.. Alyoxin bilan Kapablankaning mashhur partiyasi-ku bu!

– Narigisi yutadi, –dedim.

– O‘shanisi Qodiriy-da, – dedi Obidjon aka.

Mening fikri-zikrim taxtadagi vaziyatda edi, – shu vaziyatda buyuk Kapablanka taxtdan yiqilgan.

Qodiriyni ko‘rdim-u, ko‘rdim deb aytolmayman.

Buning Hakim Nazirga nima daxli bor, dersiz? Hakim aka «Lenin uchquni»da ishlardilar. Shu gazetada chiqqan xabarlarim uchun qalam haqi o‘rniga (pul bolani buzadi, degan bo‘lsalar kerak) u kishi menga shaxmat yuborganlar. Donalari jajji, yiltiroq taxtasi sirlangan. Bunaqasini ko‘rmagan edim. Qo‘ltig‘imda olib yurib, shu o‘yinga ruju qo‘ydim. Bolalik ekan-da…

Bolalik ham qoldi. Shaxmat ham qoldi. Qodiriy esa umrim, kasbim, taqdirim…

Bunday bo‘lishini kim bilib o‘tiribdi deysiz!

OMON QOLGAN ODAM

1956-yili edi. Yetimxonada birga o‘sgan tengdoshimni uchratib qoldim. Yigirma yilcha ko‘rishmagan bo‘lsak-da, men u haqda ancha-muncha gapni eshitib bilar edim. O‘zim umrimda ko‘p qiyinchilik, mushkul vaziyatlarni boshimdan kechirganman. Lekin mening ko‘rgan kunimni buning ko‘rgiliklari oldida jannat desa bo‘lardi.

U tarixchi yosh muallim edi. 1941-yili urushga ketganini bilaman, keyin ko‘p o‘tmay, bedarak yo‘qolganini eshitdim. Urushdan keyin ma’lum bo‘ldiki, asir tushib, to‘rt yilda konslager dahshatlarini boshidan kechiribdi. Galabadan keyin harbiy qismlarimiz qutqazganda, oilasiga darak keldi: ochlikdan chalajon bo‘lgan holicha gospitalga joylashtirishgan ekan. Ammo bir yil o‘tar-o‘tmay Kolimada emish, deb eshitdik.

O‘sha gapga ham to‘qqiz yil bo‘ldi. Demak, jami o‘n besh yilcha jahannam azobini chekib omon qolgan odam.

Lekin u hozir bunday kulfatni kechirgan kishiga sira o‘xshamasdi. Quloch yozib ko‘rishganimizda yana ham amin bo‘ldimki, u tog’ni ursa talqon qiladiganday sog’lom, baquvvat, oq yuzidan kulgi charaqlab turibdi.

– Obbo, Fazliddin-ey… – dedim o‘sha tanishim ekaniga ishonqiramay. Sportchilarnikiday dag’al, keng kafti bilan yelkamga urib qo‘ydi. Shuncha mudhish sinovlar kor qilmabdi, azamatga. «Biz detdom bolalari hammamiz shunaqamiz o‘zi, – deya g’ururlanib qo‘ydim, – mushkul yillar qaddimizni bukolmay o‘tdi-ketdi, biz esa o‘sha-o‘sha tetik!..»

– Obbo, sen-ey, yur ketdik!

– Qayoqqa?

– Qayoqqa bo‘lardi, hovligada, o‘tgan qora kunlarni eslab chaqchaqlashamiz, og’ayni.

– Yoq, – dedi u.

– Yigirma yilda bir ko‘rishib-a?

– Yo‘q, Qoqon xonligining elchisi qabulxonamda kutib o‘tiribdi… Siz ham boring. Xurosonda vaziyat og’ir… – dedi u.

Ko‘zlarimni pirpiratib, yuziga boqsam, hazillashayotgan kishiga o‘xshamaydi, jiddiy. U-bu gap topgunimcha «xayr» deb jo‘nab ketdi.

– Attang… – deya shivirlab, terakka suyangancha orqasidan qarab qolaverdim.

TAFT

Kobulda bog’i Bobur degan qadamjo bor. Uning baland to‘rida shoirning qabri saqlangan. Oyoq tomondagi qari tutni o‘sha vaqtlarda o‘tqazilgan deb tushuntirishadi. Qadamjoni ikkinchi bor ziyorat qilganimizda yonimda menga bog’lab qo‘yilgan soqchidan bo‘lak odam yo‘q edi. Uning oti Ma’rif, kambag’algina askar bola.

Men bu safar tutga uzoq tikilib qoldim. U qarib, yo‘g’on tanasi tamoman chirib, o‘q ildizi tuproqqa aylangan. Lekin bir yonidagi jindek g’udur po‘stloqdan ozgina shira kelib, bir-ikki shoxida yashil barglar hali ham shivirlashib turibdi. Nahotki, o‘sha asrlardan beri tirik? Uni o‘tqazganlar, balki buyuk bobomizni ko‘rgandir. Po‘stlog’ida kimlarning kaft izlari bor ekan? Shabadada qaltirab, yiltillab turgan bu siyrak barglar mo‘jizaday tuyuladi. Men ularni ushlagim keldi-yu, qo‘l tekkizolmadim. Tiz cho‘kib, tutning po‘stlog’i bor tomonga kaftimni uzatsam, qolim titrab, badanimga o‘t yugurganday bo‘ldi.

– Ajabo… dedim asta silab ko‘rib.

– Bo‘lmaydi, – dedi shu payt tepamda turgan Ma’rif.

O‘rnimdan turdim. Ushlash mumkin emas, deb o‘ylab, xijolat tortdim.

Bog’dan chiqqandan keyin surishtirsam, Ma’rif «bo‘lmaydi»ni boshqa ma’noda aytgan ekan. Uning otasi bozorda o‘tinfurushlarga tarozibonlik qilar ekan. Xonadonda o‘tinning sifatini yaxshi bilishadi.

– Endi u yonsa ham taft bermaydi. Chirindi, – dedi askar.



STRESSNI QANDAY YENGISH MUMKIN?

Stress sizning boshqalar bilan munosabatlaringizga va kayfiyatingizga salbiy ta’sir qilmasligi uchun uni tezda bartaraf etish muhimdir. Qiyin vaziyatni yengishga yordam beradigan bir qancha usullar mavjud. Ularning yordamida siz o‘zingizni chalg‘itasiz, dam olasiz va noxush fikrlardan ijobiylariga o‘tasiz.

Bu borada, qanchalik oddiy tuyulmasin, nafas olish texnikasi ham samarali yordam beradi. Buning uchun, eng avvalo, chuqur va bir tekis nafas oling. O‘pkangizga havo to‘ldirib, keyin asta-sekin uning tark etayotganini his qiling. Eng asosiysi, nafas olish tezligi va chuqurligini tartibga solish orqali siz stressni yumshatasiz va tezroq ruhan tiklanasiz.

Meditatsiya ham e’tiboringizni chalg‘itishga, sizni bezovta qilayotgan vaziyatdan chiqib ketishga, yomon kayfiyatdan xalos bo‘lishga va dam olishga yordam beradi. Yoqimsiz va og‘ir fikrlardan uzoqlashish uchun o‘zingizga qulay pozitsiyani toping va 5-7 daqiqa davomida hech narsa haqida o‘ylamang. Faqat shu yerda hozir bo‘ling. Sekin va ritmik nafas oling.

Mazali taom tanovul qilish tashvish bilan kurashishga yordam beradi. Yuqori kaloriyali tort yoki konfet, hech bo‘lmaganda fransuz kartoshkasi yoki gamburgerni iste’mol qiling. Ammo ovqat hazm qilish tizimi bilan bog‘liq muammolar, ortiqcha vazn yoki qonda shakar miqdori yuqori bo‘lsa, boshqa usullarni tanlash yaxshi samara beradi.

Stressli muammo haqidagi o‘ylar miyangizga o‘rnashib qolmasligi uchun eng avvalo sizni quvontiradigan va tinchlantiradigan yumushlarni bajaring. Masalan, kitob o‘qing, sevimli musiqangizni tinglang, iliq vanna qabul qiling, go‘zallik saloniga boring. Rohat, xush kayfiyat baxsh etadigan har qanday jarayon sizni qayg‘uli fikrlardan chalg‘itadi.

Sport bilan shug‘ullanish va jismoniy mashqlar bajarish ham stressli vaziyatlarni yengishga yordam beradi. Ular organizmda quvonch gormonlari – endorfinlar ishlab chiqarishni ko‘paytiradi. Bunga kuch mashqlari, velosipedda uchish va yugurish kiradi.

Agar ishxonada stressli vaziyat yuzaga kelsa, ish kunining oxirigacha kutmang. Darhol imkoni bo‘lgan oddiy mashqlarni bajaring. Bir necha marta egilib, qaddingizni rostlang. Binodagi yo‘lak (koridor) bo‘ylab yuring, qo‘lingizda kengaytirgich yoki kauchuk to‘pni bir necha marta siqib qo‘ying. Ofisingizdan tashqariga chiqib, yaqin atrofdagi xiyobonda sayr qiling. Ana shundagina kutilmagan stress sizni oson va tez tark etadi.

Azamat SUNNATOV,
Sirdaryo viloyati IIB Tibbiyot bo‘limi HTK boshlig‘i, leytenant.

TYANSHAN BAG‘RIDAGI SO‘LIM OROMGOH





















O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tasarrufidagi «Oq-tosh» bolalar sog‘lomlashtirish oromgohi Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumani hududida, G‘arbiy Tyanshan tog‘ tizmasi Qorajantov tog‘ining pastki qismida joylashgan. Ushbu so‘lim maskan biryo‘la 600 nafar bolajonni o‘z bag‘riga sig‘dira oladi. Oromgohda shu kunlarda tizim xodimlarining farzandlari yayrab dam olishyapti.

Cho‘milish havzasi, yozgi amfiteatr, futbol va voleybol maydonlari, oshxona, ommaviy tadbirlar hamda yig‘ilishlar o‘tkazish uchun mo‘ljallangan maydon ular ixtiyorida. Maskanda turli to‘garaklar faoliyat ko‘rsatib turibdi. Futbol, voleybol, basketbol, badminton va stol tennisi bo‘yicha musobaqalar tashkil etilyapti. Bolajonlarga yozgi amfiteatrda qiziqarli kinofilmlar namoyish qilinmoqda. Xullas, yoz o‘tmoqda soz!



SAYYOHLAR XAVFSIZLIGI – SUVDA HAM KAFOLATLI

Mamlakatimizda xavfsiz turizmni yangi bosqichga olib chiqish yo'lida muhim qadam qo'yildi. O'zbekistonda ilk marotaba suv obyektlarida xavfsizlikka mas'ul maxsus bo'linma Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida o'z faoliyatini boshladi. Ushbu yangi tizim hududdagi suv transporti harakatini qat'iy va samarali nazorat qilish imkonini beradi. Natijada maskanga tashrif buyuruvchi mahalliy va xorijiy sayyohlar xavfsizligi yanada ishonchli kafolatlanadi.